

**Buxoro davlat universiteti
o'quv-metodik kengash 6-sonli
yig'ilishining bayonnomasidan**

K O' C H I R M A

31.01.2022

Buxoro shahri

K U N T A R T I B I:

1. Turli masalalar.

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti, f.f.n.B.E.Qilichevning 5120101-Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek) ta'lim yo'nalishi 2-3-kurslari uchun "Onomastika" fanidan mustaqil ta'lim uchun materiallar" deb nomlangan metodik qo'llanmani tavsiya etish.

E S H I T I L D I:

M.Y. Farmanova (kengash kotibasi) - O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti, f.f.n. B.E.Qilichevning 5120101-Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek) ta'lim yo'nalishi 2-3-kurslari "Onomastika" fanidan mustaqil ta'lim uchun materiallar" deb nomlangan metodik qo'llanmani nashrga tavsiya etishni ma'lum qildi. Ushbu metodik qo'llanmaga: NavDPI Filologiya fanlari nomzodi, dotsent B.P.Zaripov va Filologiya fanlari nomzodi, dotsent T.H.Asadovlar tomonidan ijobiy taqriz berilgani ta'kidlandi. Metodik qo'llanma muhokamasi haqidagi Filologiya fakulteti (2021-yil 28-dekabr) va O'zbek tilshunosligi kafedrasida (2021-yil 22-dekabr) yig'ilish qarori bilan tanishtirdi.

Yuqoridagilarni inobatga olib o'quv-metodik kengash

Q A R O R Q I L A D I:

1. O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti, f.f.n. B.E.Qilichevning 5120101-Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek) ta'lim yo'nalishi 2-3-kurslari uchun "Onomastika" fanidan mustaqil ta'lim uchun materiallar" deb nomlangan metodik qo'llanma nashrga tavsiya etilsin.

O'quv-metodik kengash raisi

O'quv-metodik kengash kotibasi



R.G'. Jumayev

M.Y. Farmanova

Bayramali Kilihev

**“Onomastika” fanidan
MUSTAQIL TA’LIM
UCHUN MATERIALLAR**



Buxoro - 2022

Bayramali Kilichev

“Onomastika”

fanidan

**MUSTAQIL TA'LIM UCHUN
MATERIALLAR**

metodik ko'rsatma

Buxoro – 2022

Mazkur metodik Buxoro davlat universiteti o‘quv-metodik kengashining 2022-yil 31-yanvardagi 6-sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

Mas’ul muharrir:

A.R.Axmedov,

BuxDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

Taqrizchilar:

B.P.Zaripov,

NavDPI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

T.H.Asadov,

BuxDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

KIRISH

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda qayd etilganidek, Respublikamiz hukumati ham jismoniy, ham aqliy mehnatga qobiliyatli, xalq xo'jaligida, ijtimoiy va davlat hayotining turli sohalarida, fan va madaniyat jabhalarida namunali faoliyat ko'rsatishga qodir, ongli, bilimdon kishilarni tarbiyalash va tayyorlash yo'lini izchil o'tkazmoqda. Mamlakatimizning hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish, turmushimizning barcha sohalarida tub o'zgartirishlarga keng yo'l ochib berish davrida talabalarga eng zamonaviy ilmlarni o'rgatish va amaliy jihatdan yaxshi tayyorlash, ularning ilmiy ishga, ijodkorlikka layoqatini namoyon qilish va o'stirish oliy o'quv yurtlarining eng muhim vazifalaridan biridir. Binobarin, hukumatimizning qator qarorlari tomonidan qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarish uchun talabalarni auditoriya mashg'ulotlari bilan band qilishni kamaytirish, o'qituvchilar tomonidan metodik yordam va nazoratni ta'minlab, mustaqil ishni tashkil etishni takomillashtirish kerakligi alohida ta'kidlangan. Bu vazifani amalga oshirish oliy o'quv yurtlari kafedralari oldiga o'quv jarayonini amaliyot bilan yaqinlashtirish, talabalarni mustaqil faoliyatga o'rgatish masalalariga aloqador bo'lgan zarur metodik ko'rsatmalarni ishlab chiqishni talab qilmoqda. Mana shu mulohazalar asosida «Onomastika» fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari, ularga doir o'quv materiallarini yaratishga ehtiyojning kattaligi sababli ushbu metodik qo'llanma yuzaga keldi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2017-yil 24-avgustda tasdiqlangan namunaviy dasturda *“Mustaqil ta'limni tashkil*

etishning shakli va mazmuni” bandida 10 ta mavzu berilgan. Talabalarga ushbu mavzular bo‘yicha referat tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etilgan. Biz ushbu mavzularning ayrimlari bo‘yicha materiallarni talabalarga taqdim etdik.

Mustaqil tahlil uchun materiallar

1-mavzu:

«BOBURNOMA»

«Boburnoma» XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida Oʻrta Osiyo, Afgʻoniston va Hindiston tarixi, geografiyasi va etnografiyasiga doir qimmatbaho materialdir.

Prof. H.Hasanovning taʼkidlashicha, «Boburnoma»da 1000ga yaqin geografik nom tilga olingan. Oʻrta Osiyoga doir nomlarning koʻpchiligi hamon oʻsha davrdagi kabi yoziladi va talaffuz etiladi: *Fargʻona, Samarqand, Badaxshon, Olmaliq, Turkiston, Andijon, Buxoro, Soʻx, Axsi, Koson, Ars, Oʻratepa, Xovos, Sayram, Xisor, Ispara, Oqqapchigʻay, Oqsuv (Oʻratepa yaqinida), Zomin, Shahrisabz, Qorakoʻl, Amu, Kandiriik (dovon), Qarshi, Shahrisabz, Qorabuloq, Yom, Pop, Dargʻam, Qorategin, Namangan, Sangzor, Alay (Oloy), Fon, Miyonkol, Piskent, Ilonoʻtti, Ohangaron* va h.k. Baʼzi birlari esa shaklan oʻzgarib yetib kelgan: *Olmatu – Olmaota (toʻgʻrisi – Olmati), Margʻinon – Margʻilon, Rushdon – Rishton, Toshkand – Toshkent, Moʻnugʻil – Moʻgʻul (togʻ), Kandibodom – Konibodom, Chir suyi – Chirchiq, Dizak – Jizzax, Qubo – Quva, Oʻzgand - Oʻzgan, Tirmiz – Termiz, Xoʻqon – Qoʻqon, Siyohob – Siyob, Quzor – Gʻuzor, Karmina – Karmana, Chorju – Chorjoʻy* kabi. Bir qancha joy nomlari esa butunlay boshqacha nom olgan: *Yangi (Taroz) – Talas, Sayxun daryosi, Xoʻjand suyi – Sirdaryo, Darbandi Ohanin – Temir darvoza (dara)* va boshqalar.

«Boburnoma»dagi joy nomlaridan koʻpchiligining maʼnosini oʻzbek va tojik tillari yordamida tushunsa boʻladi. Bir qancha toponimlarning etimologiyasini Boburning oʻzi tushuntirib oʻtgan. Oʻsha davrda

Zarafshon *Ko‘hak* deb atalgan: «Bu suv bila Samarqand orasida bir pushti tushubtur. Ko‘hak derlar. Bu rud muning tubidin oqar uchun Ko‘hak suyi derlar» (Ko‘hak tojikcha so‘z bo‘lib, *ko‘h* – tog‘, *-ak* kichraytirish affiksi, «tog‘cha», ya’ni «tepalik» demak, hozir **Cho‘ponota** deb ataladi).

Takasekretku (Takasekirgan) – «Bu jihatdan ul mavzu bu ismga mavsumdurkim, tog‘ domanasi jihatidin bu daryo andoq tor oqarkim, rivoyat qilurlarkim, ul yerdin taka sekrigandur, mag‘lub bo‘lib ilikka tushti». H.Hasanov Bobur tilga olgan Takasekretu Norin daryosining Uchqo‘rg‘on qishlog‘i yaqinidagi tor qisig‘i bo‘lsa kerak, deb taxmin qilgan. Biroq S.Jalilov bu joyni «Qoradaryodan qidirmoq kerak», deydi. Shunday qilib, Takasekretku qayerda ekanligi ma’lum emas.

Asarda Konigil to‘g‘risida aytilgan gaplar ham e’tiborga molik. Ba’zi birovlar uni *Koni gil*, ya’ni «tuproq koni» desalar, boshqalar, chunonchi, Fazlulloh bin Ro‘zbexon «Mehmonomayi Buxoro» asarida *Koni gul*, ya’ni «gullar koni» deydi. Bobur esa «o‘langning oti Koni obgir» deb yozadi. Bu esa haqiqatga yaqin. Chunki Siyob suvinmg «atrofi tamom obgir», ya’ni botqoq bo‘lgan (obgir atamasi «Boburnoma»da bir necha joyda uchraydi). Demak, *Koniobgir* asta-sekin o‘zgarib Konigil shaklini olgan.

Keshning Shahrisabz deb atalishining sababi: «Bahorlar sahrosi va shahri va bomi va tomi xo‘b sabz bo‘lur uchun **Shahrisabz** ham derlar».

Qarshi shahri nomining etimologiyasi haqida «Boburnoma»da bunday deyilgan: «Qarshi mo‘g‘ulcha ottur, go‘rxonani mo‘g‘ul tili bila qarshi derlar. Qadimgi turk tilida qarshi «ko‘shk», «saroy», «xon qarorgohi» demak. Lekin XV-XVI asrlarda bu so‘z «mo‘tabar shaxslar

qabriga qurilgan dahma maqbara» ma'nosini olgan.

So'ngra «Yana bir Parvon yo'lidur, ulug' ko'tal bila Parvon orasida yana yetti ko'tal bor uchun haftbacha derlar».

«Ko'hi Safed Ningnahorning janubida voqea bo'lubtur, bu tog'din qor hargiz o'ksumas. Bu jihattin g'olibo Ko'hi Safed (Oq tog') derlar».

Bobur Lamg'on etimologiyasini grammatik asosda isbotlaydi: «Hazrati Nuh payg'ambarning otasi Mehtar Lomning qabri Alishang tumanidadir. Ba'zi tarixta Mehtar Lomni Lamak Lamkon debturlar. Ul elni xili mulohaza qililibturkim, ba'zi mahal «kof» o'runig'a «g'ayn» talaffuz qilurlar (k tovushi o'rnigi g' tovushi talaffuz etilar ekan). Bu jihattin g'olibo bu viloyatni Lamg'on debturlar».

Seyoron: «Bu kentlardin quyiroq dashtdin bir kuruh-bir yarim kuruh yuqori boqa domanada tog'ning tubida chashma voqea bo'lubtur. Xoja Seyoron derlar. Bu chashmada va bu chashmaning atrofida uch nav daraxtlardur. Derlarkim, bu uch jins daraxt uch azizning karomatidir, Seyorong'a vajhi tasmiya buni derlar».

G'azni shahri yaqinida Ravza degan joy bo'lgan. Boburning yozishicha Mahmud G'aznaviy ana shu yerga dafn etilgan: «Sulton qabri anda uchun Ravza derlar» (*ravza* so'zi arabcha bo'lib, chamanzor, bog' demak. Biroq buyuk kishilarning qabrini gulzorga nisbat berib, ba'zan ravza deb ataydilar). Go'spandliyorning ma'nosi: «Omnia yo'l o'ng qo'limizda bir-ikki kuruh ekandur, bu yo'l otliq yo'li emas ekandur. Qo'ychi va cho'pon gohi gala va ramani bu yo'l va tangi bila indurur uchun bu yo'lni Go'spandliyor der emishlar. Yo'lni afg'on tili bila liyor derlar». Demak, Go'spandliyor – «qo'y yo'li» degan so'z ekan.

Nima uchun Havoli Qutiy deb atalishining sababi: «Ushbu tarix bila

qor tepib, yo‘l qilib, Injukon yerdin uch-to‘rt kunda ko‘tali Zarrinning tubiga Havoli Qutiy degan Qavolg‘a kelduk.. Ul el tog‘dag‘i g‘or va kovoklarni havol derlar».

Bobur Kashmir etimologiyasini quyidagicha taxmin qiladi: «...Bu tog‘ elini Kas derlar. Xotirg‘a yettikim, Hindiston eli «shin»ni «sin» talaffuz qilur (ya’ni **sh** tovushini **s** talaffuz qiladilar), chun bu tog‘da mo‘tabar shahar Kashmirdur, balki Kashmirdin o‘zga bu tog‘da yana shahre eshitilmaydur. Bu jihattin bo‘la olurkim, Kashmir demish bo‘lg‘aylar».

Himolay tog‘larini Bobur bunday izohlaydi: «Bu tog‘ni hind eli Savo lak parbat derlar, hind tili bila «savo» – rub’ (chorak), «lak» – yuz ming, «parbat» – tog‘, ya’ni rub’ va yuz ming tog‘kim, yuz yigirma besh ming tog‘ bo‘lg‘ay».

Joy nomlarining grammatik xususiyatiga kelganda shuni aytish kerakki, «Devonu lug‘otit turk»da uchraydigan toponimlarning aksariyati bir komponentli (bir tarkibiy qismli) bo‘lsa, «Boburnoma»dagi joy nomlarining ko‘pchiligi ikki komponentlidir. Affiksli (qo‘shimchali) toponimlar ham anchagina uchraydi. Affikslardan, -an (yon), -ob, -tu, **-ot** eng xarakterlidir: *Ohangaron, Childuhtaron, Bog‘izag‘on, So‘zangaron, Bishxoron, Charmgaron, Valiyon, Bomiyon, Seyoron* va b. *Andarob, Serob (Sarob), Tangob, Murg‘ob, Nilob, Balxob, Dug‘oba, Astarob, Xushob, Chanob, Siyohob, Surxob, Borixob kabi. Olmotu, Chiltu, Samtu (Shamtu), Chatu, Qayoqtu, Ulobatu, Neratu, Jarg‘otu, Qammotu, Qo‘ratu, Shibartu* va h.k.

Bobur -ot affiksini ko‘plik ma’nosida juda ko‘p ishlatadi. *Bek – bekot, tuman – tumanot, aymoq – aymoqot, bo‘luk – bo‘lukot, bog‘ – bog‘ot, pargana – parganaot.* Bunday so‘zlar oxiridagi -ot qo‘shimchasini

A.M.Shcherbak mo'g'ulcha affiks bo'lsa kerak, deb taxmin qilgan. Biroq bu yerda hech qanday mo'g'ulchaga o'rin yo'q, balki sof arabcha element.

«Boburnoma»da geografik atamalar shu qadar ko'pki, ularning ko'pchiligi hozir ham mavjud, bir qanchalari faqat geografik nomlar tarkibida qolgan, ba'zi birlari butunlay iste'moldan chiqib ketgan. *Jar, yayloq (yaylov), tangi, tog', tepa, dara, dasht, koriz, dovon, sahro, soy, shoxob, orol, sel* kabi atamalar o'zbek geografik adabiyotida keng ishlatiladi. *Shayjo'y, kent, ko'xpoya, pushta, tuz, o'lang, qo'l, takob, bandar, band, qasaba, o'rdi (o'rda), yom, chordara, qorasuv* kabi atamalar asosan joy nomlari tarkibida qolgan yoki boshqa tillarda, chunonchi, tojik tilida uchraydi. *Brong'or, jivong'or, tunqotar* kabi harbiy atamalar ham bir qancha toponimlar hosil qilgan.

«Boburnoma»da tilga olingan asosiy geografik atamalar quyidagilar: *tarnov* (ariq), *qasaba* (shaharcha), *shayjo'y* (ariq), *kent, ko'hpoya* (tog' etagi), *pushta* (tepalik), *jar, yayloq* (yozgi qo'nish joyi), *botqoqlik, qorasuv, tuz* (tekislik), *tangi* (tor dara), *obgir* (botqoqlik), *qo'ruq* (qo'riqxona), *o'rchin* (okrug), *uchma* (tik yonbag'ir), *yozi* (ko'klam), *dobon* (dovon), *ko'tal* (dovon, oshuv), *julga* (vodiy, soylik), *qo'l* (soy), *quruq qo'l* (quruq soylik), *dara, soy, tepa, tumshuq, bandar* (savdo shahri), *takob, tagob* (o'zan, zax yer), *pargana* (viloyat), *band* (dovon, tog' yo'li), *dara, parcha tog', gardona* (bo'yin), *liyor* (yo'l), *suvsiz qo'l* (soylik), *o'lang* (o'tloq, ko'kalamzor), *aymoq, aymoqot, quruq rud* (quruq o'zan), *sumj* (g'or), *tog' kamari, chig'ir* (chiyir, tor yoi), *kimson* (oltin), *chopqun* (bo'ron), *uchma* (tik yonbag'ir), *langar, yozi* (dala, dasht), *o'rdi* (o'rda), *dasht, kadxudo, oila* (xo'jalik), *shoxob,*

jar, yakraqa (yolg'izoyoq yo'l), *sahro, biyobon, balandi* (tepalik), *koriz, tog' etagi, yurt* (qo'nish joyi), *ushoq tog'lar, jangal* (o'rmon), *lo'limi* (bahorikorlik), *jazoyir* (orol), *birinj* (bronza), *sel, ko'ra, chiyini* (chini), *qiyo* (qoya), *yomchi* (yom xodimi), *chordara* (korovulxona), *to'qay* (daryo tirsagi), *orol, jar, balchiq, sol*.

O'simlik hamda hayvonlarning bundan besh asr oldin qanday nomlar bilan atalishi ham toponimika uchun ahamiyatlidir. Bobur zamonida *kark* (karkidon), *qulon, bug'u maral, kiyik* kabi hayvonlar juda serob bo'lgan va bir qancha joylar shu hayvon nomlari bilan atalgan. Karkxona, Qulonlisoy, Maralboshi, Kiyikli va hokazo. Bobur davridan hozirgacha deyarli o'zgarmagan hayvon nomlari: *bo'dana* (bedana), *kiyik, maral; qulon, qo'ton, qoz* (g'oz), *tovuq, qarqara, qarchig'ay, tuyg'un* (oq qarchig'ay), *fil, arqar, kish* (sobol), *shag'al* (chiyabo'ri), *sor, olaqarg'a, qarlug'och* (qaldurg'och), *zog'cha, itning kuchugi* (itvachcha) va boshqalar. Ba'zi hayvonlar hozir boshqacharoq nom bilan ataladi: *ars* – oqsuvsar yoki oqsichqon, *govmish* – buyvol, *kark* – karkidon, *bag'riqaro* – qorabovur, *buqalamun* – xameleon, *uy* – sigir va h.k.

Bobur juda ko'p urug', qabilalar nomini tilga oladi. Shunisi xarakterliki, kishi ismi bilan birga ko'pincha uning qaysi urug'dan ekani aytib o'tiladi: Masalan, Ibrohim soru minglig' urug'idan edi, Amir mo'g'ul, Zunnun arg'un va o'g'li Shoh Shujo' arg'un, Qosim qavchin, Oq qo'ylik uzun Hasan, Hamzabiy mang'it, Shayx Abdulla barlos, Qosim jaloyir, Tohir do'lday va hokazo. Barlos, jaloyir, do'lday qabilalari ayniqsa tez-tez tilga olingan, chunki Bobur armiyasining asosini ana shu uch qabila vakillari tashkil etgan. Bobur qabilalarning

qaysi tilda gaplashishiga ham e'tibor bergan: «o'n bir-o'n ikki lafz bila Kobul viloyatida talaffuz qilurlar: arabiy, forsiy, turkiy, mo'g'uliy, hindiy, afg'oniy, pashoyi, parojiy, gabriy, barakiy, lamg'oniy».

Hazora qabilasining tili to'g'risida quyidagi so'zlarni o'qiymiz: «G'azni tog'larida hazora va nakdaridur. Bularning orasida ba'zi mo'g'uliy til bila hikoyat qilurlar».

Venger olimi L.Ligeti Afg'onistondagi hazora shevalarida mo'g'ulcha so'zlar juda ko'p ekanligini aniqlagan. «Boburnoma»dagi kishi nomlari maxsus tadqiqot manbayidir.

2-mavzu:

“BUXORO TARIXI”

Mazkur manba O'rta Osiyo xalqlari tarixnavislik fanidagi dastlabki asarlardan biri. «Buxoro tarixi» O'rta Osiyoda arablar istilosi natijasida islom dinining tarqalishi (VIII asr) hamda IX-XII asrlardagi Buxoro va unga yaqin shahar-qishloqlar, xalqlarining iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy, siyosiy tarixiga oid muhim ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. Asarda Buxoro shahri va uning atrofidagi shahar-qishloqlar, anhor-ariqlarning bundan ming yil oldin qanday atalganligi bayon etilgan.

«Buxoro tarixi»ni asli Buxoroning Narshax qishlog'idan bo'lgan Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far-an-Narshaxiy (to'la nomi – Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far ibn Zakariyo ibn Xattob ibn Sharik) 943-944-yillarda arab tilida yozgan.

Asarning bizgacha yetib kelgan forsha-tojikcha nusxasi 1128-yili Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al-Quboviy tomonidan arabcha aslyatidan qisqartirib qilingan tarjimadir. Oradan yarim asrcha vaqt o'tgandan keyin 1178-1179- yillarda Muhammad ibn Zufar ibn Umar

fors-tojikcha tarjimini ikkinchi marta qisqartirib bayon qilgan va unga 1220-yilgacha boʻlgan voqealar ham kiritilgan.

Asar chet ellarda ham bir necha bor chop etilgan. Jumladan, 1897-yilda A.I.Likoshin tarjimasida Toshkentda rus tilida, R.Fray tarjimasida 1954-yilda Kembrijda ingliz tilida nashr etilgan.

1966-yili Toshkentda A. Rasulyev tarjimasida nashr etilgan.

Asardagi joy nomlari izohi

«Samarqand tomonida bir katta daryo borki, uni *Rudi Mosaf -Mosaf daryosi* deb ataydilar» (bu Zarafshon daryosi).

«Hali Buxoro shahri vujudga kelmagan, lekin qishloqlardan baʼzilari paydo boʻlgan edi. Nur, Xarqonrud, Vardona, Tarovcha, Safna va Isvanalar oʻsha qishloqlar jumlasidandir». Bu qishloqlar kitobning oʻzbekcha nashrida bunday izohlangan: **Nur** yoki **Nuri Buxoro** Nurota tumani markazi hozirgi Nurota shahridir. Xarqonrud – Zarafshon daryosidan chiqarilgan hamda Shopurkom va Gʻijduvon tumanlarini sugʻoradigan qadimiy kanal (rud, roʻd – kanal, ariq). **Xarqonrud** shu kanal boʻyida joylashgan qishloq. Hozir **Xarqona** deyiladi. Vardona qoʻrgʻoni Vardonzi nomi bilan hozir ham mavjud (Shofirkon tumani). Shu tumandagi Xoʻjagʻulomtepa qishlogʻi yaqinidagi katta tepalik ham shunday ataladi. Tarovcha Buxoro shahrining janubi-gʻarbidagi Tarob qishlogʻi nomining kichraytirib aytilgan shakli.

Buxoro va unga qoʻshiladigan joy nomlari izohi

Karmina Buxoro qishloqlari jumlasidan boʻlib, uning suvi Buxoro suvidan (Zarafshondan) keladi. Karminada (hozirgi Navoiy viloyatida) adib va shoirlar koʻp boʻlgan. Masalda aytilishicha, qadim vaqtlarda Karminani «Bodyayi xurdak» («koʻzacha») deb ataganlar (Karmina –

hozirgi Karmana shahri. Bodyayi xurdak «ko‘zacha» emas, balki «kichik dasht», «kichik cho‘l» demakdir. Chunki bodya so‘zining asl ma‘nosi «cho‘li biyobon»).

Nur katta joy. Unda masjidi jome bor, u ko‘pgina rabotlarga ega. Buxoro va boshqa joylarning odamlari har yili ziyorat uchun u yerga keladilar... Bu Nurni boshqa viloyatlarda Nuri Buxoro deb ataydilar (hozirgi Nurota shahri).

Tavois (ko‘pchilik manbalarda Tavovis). Bu Buxoro viloyatlaridan bo‘lib, (asli) nomi Arquddir («Hudud ul-olam»da Arfud, «Buxoro tarixi»ning bir nusxasida «u Rabotimalik cho‘lining g‘arbida joylashgan» deyilgan). Unda boy va zeb-u ziynatni sevuvchi kishilar yashaganlar... Har bir kishi ziynat uchun bitta yoki ikkita tovus saqlagan. Arablar tovusni ko‘rmagan ekan, u yerda ko‘p tovuslarni ko‘rib, u qishloqni «Zot ut-tavois» – «Tovuslar egasi» deb ataganlar. Undan keyinroq «zot» so‘zini tashlab Tavois deb qo‘ya qolganlar... Tavois Samarqandga boradigan katta yo‘l ustida bo‘lib, undan Buxorogacha yetti farsangdir...

Iskajkat. U bir katta ko‘handizga ega (ko‘handiz – qal’a, ark, ma‘nosi «eski qal’a» demak: sug‘dcha *diz* — «qal’a», ko‘han, ko‘hna — «eski»). Uning aholisi boy kishilar boigan. Yoqut Hamaviyning «Mu’jam ul-buldon» asarida qishloq Iskijkat yoki **Sikijkat** shaklida tilga olingan.

Sharg‘ qishlog‘i Iskajkat ro‘parasidadir, ikkovining orasida katta daryodan boshqa hech bir bog‘ va bo‘sh yerlar yo‘q. U daryoni Rudi Somjan deb ataganlar. Hozirda Sharg‘ daryosi, ba’zi kishilar bo‘lsa, Haromkom deydilar. Sharg‘ yoki Jarg‘ qishlog‘i Yoqutning «Mu’jam ul-buldon»ida ham tilga olingan va Buxorodan 4 farsax uzoqda, *Somjan*

arig'ining bo'yida edi, Somjan arig'i keyinchalik Haromkom (buxorochasiga *kom* – ariq) deb atalgan. Sharg' yoki Jarg' qishlog'i va arig'i nomini *Charg'* shaklida yozish to'g'riroq, deydi akademik V.V.Bartold.

Zandana. Bu qishloq katta qal'aga, ko'pgina bozorlarga va masjidi jomega ega. Bu qishloqda to'qib chiqariladigan bo'z – karbosni «zandaniychi», ya'ni «Zandana qishlog'idan chiqadigan» deb ataydilar. (hozirgi Peshku tumanidagi Zandoni qishlog'i bo'lsa kerak).

Vardona. Bu katta bir qishloq bo'lib, ko'handizga, katta va mustahkam hisorga ega. U qadim vaqtlardan podsholarning qarorgohlari bo'lgan, lekin hozirda unda podshoh o'tiradigan qarorgoh yo'q. Vardona Buxoro shahridan qadimroq barpo bo'lgan.

Vardona (Vardani, Vardanzi, Vardanze) qishlog'i Shofirkon tumanidagi **Qo'rg'oni Vardanzi** nomi bilan mashhur tepalik atrofida bo'lgan. Pahlaviy tilida *vard* — «gul», *-on* ko'plik qo'shimchasi, *ze(zi)* — «yer», *Vardonze* — «sergul joy» degani.

Afshina. Katta shoriston (shahriston)ga va mustahkam hisorga ega. Bir qancha qishloqlar unga mansubdir. U yerda har haftada bir kun bozor bo'ladi. Bu qishloqning ekin yerlari va biyobonlari madrasa talabalariga vaqf qilingan.

Afshina – bu hozirgi Pehsko' tumanidagi **Afshana** qishlog'idir. O'sha davrlarda Samarqand yaqinida ham Afshina qishlog'i bo'lgan. Afshin – Jizzax bilan Xo'jand shaharlari oralig'idagi Usrushona tarixiy viloyati podshosining unvoni – «hukmdor» degani, bu so'z asli sug'dcha bo'lishi kerak.

Barkad. Bu qadimiy va katta bir qishloq, bir katta ko'handizga ega.

Bu qishloqni «Barkadi alaviyon» — «Ali avlodining Barkadi» deb ataydilar. Bunga sabab shuki, amir Ismoil Somoniy bu qishloqni sotib olib, uning bir bo‘lagini Muhammad payg‘ambarning kuyovi xalifa Ali avlodiga vaqf qilgan. Bu qishloqning keyingi tarixi noma’lum.

Romtin (Romitan). Bu katta ko‘handizga ega va mustahkam qishloq bo‘lib, Buxorodan qadimiyroq. Ayrim kitoblarda bu qishloqni Buxoro deb ataganlar. U qadim vaqtlarda podsholarning turar joylari bo‘lgan, keyinroq esa Buxoro shahri bino bo‘lgandan keyin podshohlar qish faslidagina bu qishloqda turganlar. Bu qishloqni Afrosiyob bino qilgan.

«Buxoro tarixi»ning Buxoroda bosilgan nusxasida **Romtin** (Romitan) qishlog‘i nomining kelib chiqishi haqida bir rivoyat keltiriladi. Aytadilarki, Afrosiyobning bir qizi bo‘lib, uning doimo boshi og‘rir edi. Romtinga kelib turib qolganidan keyin bu yerning havosi muvofiq kelib darddan xalos bo‘ldi va bu joyga «Oromi tan» – «Tan oromi» deb nom qo‘ydi. Oddiy xalq buni «Romtin» deganlar. Bu hozirgi Romitan tumani markazi Romitan shahridir.

Varaxsha. Bir kitobda Varaxsha o‘rnida Rajfandum deb yozganlar. Katta qishloqlar jumlasidan bo‘lib, Buxoro singari edi. U Buxoro shahridan qadimiydir, podshohlar turadigan joy bo‘lib, mustahkam hisorga ega bo‘lgan.

Bu qishloqning nomi turli mualliflarda Baraxsha, Farahsha, Afraxsha, Faraxshan, Varaxshiy, Afraxshiy, hatto Rajfandum, Daxfendun shakllarida qayd qilingan. V.V.Bartold bu qadimiy qishloqning nomi Romitan qishlog‘i yaqinidagi katta tepalik nomida saqlanib qolgan ko‘rinadi, deydi. Varaxshaning qoldiqlari Buxorodan 30 km shimoli-g‘arbda joylashgan.

Baykand. Buni shaharlar jumlasidan deb hisoblashadi. Baykand aholisi biror kishining Baykandni qishloq deb atashiga ruxsat bergan emas. Baykandda Buxoro qishloqlari sonicha, ya'ni mingdan ortiq rabot bo'lgan. Buning sababi shuki, Baykand katta va yaxshi joy bo'lib, har bir qishloqning aholisi u yerda bir rabot qurib, unga bir to'da kishilarni joylab qo'ygan va ularning nafaqalarini qishloqdan yuborib turgan. Qish faslida kofirlar yig'ilib hujum qiladigan vaqt bo'lganida har bir qishloqdan u joyga ko'p xalq to'planib g'azot qilganlar. Shunda har bir odam o'z rabotiga kelib tushgan. Bu shahar «Hudud ul-olam»da va boshqa asarlarda ko'proq **Paykend** (Poykend) shaklida uchraydi.

Haromkora suvi Baykandga keladi. Baykandda qamishzorlar va katta-katta suv halqoblari tutashadi. Bularni «Borgini farox» – «Keng havz» deyдилar va Qorako'l deb ham ataydilar.

Bu ma'lumotlar tarixiy geografiya va toponimika uchun o'ta muhim. Bundan 10 asr oldin hozirgi **Qorako'l** shahri atroflarida kengligi 20 farsax katta ko'l bo'lgan, bu ko'l Bargini farox, Buhayrayi Somjan va Qorako'l deb atalgan ekan.

Buxoroning turli nomlari haqida Narshaxiy u **Numijkat**, **Bumiskat**, arabchada «Madinat us-sufriya» («Mis shahar»), «Madinat ut-tujjor» («Savdogarlar shahri») kabi nomlar bilan atalganini qayd etadi va «Buxoro degan nom u nomlarning hammasidan mashhurroqdir, deydi. Xuroson shaharlaridan birontasi ham bunchalik ko'p nomga ega emas. Bir hadisda Buxoro nomi Foxira bo'lib kelgan», deydi muallif va «Nega Foxira deb ataydilar» degan savolga Jabroil: «Shuning uchunki, qiyomat kuni Buxoro shahri o'zida shahidlarning ko'pligi bilan faxr qiladi, deb javob beradi», deb yozadi.

Bu o‘rinda shuni aytish kerakki, Numijkat asiida Buxoroda bo‘lgan, so‘ng bu ikki shahar bir-biriga qo‘shilib ketgan.

Bu asarning toponimika uchun eng muhim tomoni shundaki, Buxoroning o‘sha zamondagi bir necha yuz shahar hamda qishloqlari nomlari tilga olingan. Shunisi xarakterliki, Narshaxiy tilga olgan bir necha qishloq va shaharlar hozir ham o‘sha nom bilan ataladi. *Nur* (hozirgi Nurota), *G‘ijduvon*, *Romitan*, *Shopurkom*, *Karmana* ana shular jumlasidan. Bular juda qadimiy joylardir. Masalan, Romtin (Romitan) «Buxorodan qadimiyroq»dir. Narshaxiy aytib o‘tgan ko‘pgina ariqlar hozir ham o‘sha davrdagi nomlari bilan yuritiladi. Narshaxiyning Shopurkom arig‘i etimologiyasi to‘g‘risida aytgan rivoyati olimlar tomonidan to‘la qabul qilingan (*Shopur* – ism, *kom* – ariq, ya’ni *Shopur arig‘i*). Nurota mo‘g‘ulcha *nuru* – «tog‘» so‘zidan olingan, degan fikrlar bor edi, holbuki bu joy nomi mo‘g‘ullar kelmasdan bir necha asr oldinoq Nur deb atalgan ekan.

«Buxoro tarixi»ning qiymati yana shundaki, unda keltirilgan nomlarning ko‘plari arablardan oldingi nomlardir. Unda Ko‘shki mug‘on, *Mug‘on* (mug‘lar) ko‘chasi kabi majusiy nomlar ham uchraydi, muallif «Bu viloyatlarda otashparastlarning ibodatxonalari ko‘p bo‘lgan»ligini ta’kidlaydi.

3-mavzu:

«DEVONU LUG‘OTIT TURK» ASARIDA TOPONIMLAR

Mahmud Koshg‘ariyning bu nodir asari bebaho bir qomuski, undan har bir mutaxassis o‘ziga kerakli material topa oladi. «Devon»ni ayni vaqtda qimmatli toponimik asar ham deyish mumkin. Chunki bundan uch yuz-to‘rt yuz yil oldin yozib olingan nomlar ham hozirgi talaffuzdan

ko'ra qadimgi toponimiyaning dastlabki shakliga ancha yaqin bo'ladi. «Devonu lug'otit turk» esa bundan qariyb 10 asr oldin yozib qoldirilgan. Shuni aytish kerakki, toponim qanchalik ilgari yozib olingan bo'lsa, shunchalik qimmatli sanaladi. Chunki ana shu davrda joy nomlarining fonetik hamda grammatik xususiyatlarida qanday o'zgarishlar ro'y berganini aniqlash mumkin bo'ladi. Mahmud Koshg'ariy asarining toponimika uchun ahamiyati undagi joy nomlari bilangina tugamaydi. Toponimlarning etimologiyasi, semantikasini aniqlash hamda grammatik xususiyatlarini hisobga olishda qadimgi etnonimlar, antroponimlar, o'simlik, hayvonlarning o'sha davrdagi nomlari, toponimlarning grammatik tuzilishiga doir mulohazalar g'oyat zo'r ahamiyatga egadir. Bu jihatdan «Devon» nihoyatda boy material beradi.

«Devon»dagi toponimik ma'lumotlarni bir necha turga bo'lish mumkin:

1. «Devon»da tilga olingan joy nomlari.
2. Etnonimlar, ya'ni turli xalq, elat, qabila, urug' nomlari.
3. Antroponimlar, ya'ni kishi ismlari.
4. Geografik atamalar, o'simlik hamda hayvon nomlari.
5. So'zlarning fonetik va grammatik tuzilishiga doir fikrlar.

«Devon»da qayd qilib o'tilgan toponimlar haqida. Ma'lumki, «Devon»ga doira deb atalgan xarita ilova qilingan. Bundan tashqari, matnda ham bir qancha joy nomlari izohlab o'tilgan. Bizning hisobimizga ko'ra «Devonu lug'otit turk»da jami 160 dan ortiq toponim tilga olingan. Shu o'rinda aytish joizki, asarda ayrim joy, ba'zi o'simliklar, hayvonlar nomlari atamalar takroran berilgan. Bunday qaytariqlar hisobga kirmaydi, albatta.

Mahmud Koshg'ariyning «Devon»idagi xaritada tilga olingan nomlar to'g'risida I.I.Umnyakov, S.Umurzoqov, H.Hasanov kabi olimlar qator asarlar yozganlar.

«Devon»dagi nomlarning asosiy qismi O'rta Osiyoga oid turkiy nomlardir. Bu toponimlarning bir qanchalari hamma uchun tushunarlidir. Chunonchi, *Oqsoy, Oqterak* kabi nomlarni hozir ham uchratish mumkin. *Buxoro, Farg'ona, Samarqand, Xo'jand, Xorazm, Talas, Tarim, Sayram, Manqishloq, Issiqko'l* kabi toponimlar deyarli o'zgarishsiz yetib kelgan. *Ila, Qorayalg'a, Ala, Ertish* kabi nomlar fonetik jihatdan biroz o'zgarib ketgan va hozir *Ila, Qorajilg'a, Olay, Irtysh* shaklida yoziladi. *Beshbaliq, Yangibaliq, Tunkand, Yankand, O'zkand* kabi shahar nomlari, *Badalart, Buqachart, Zanbiat, Qavaqart, Yafg'uart* kabi dovonlar, *Ikkio'kuz, Qoraqosh o'kuz, O'rungqosho'kuz* kabi daryolar etimologiyasiga «Devon»ning o'zidan javob topish mumkin. *Bulg'or, Qifchoq, Uyg'ur, Tavg'ach, Yag'mo* kabilar etnotoponim, *Barsg'on, Barman, Qazvin* singarilar esa antropotoponimlardir. Ba'zi bir toponimlarning etimologiyasini taxminan aniqlash mumkin. Chunonchi, *ayiq* o'sha zamonlarda *azig'* deb atalgan. Mahmud Koshg'ariy *Azig'* degan joyni tilga oladi, bu nom «*ayiq*» degan ma'noni anglatgan bo'lishi mumkin.

Ma'lumki, toponimikada turli afsonalar ham inobatga olinadi va o'rganiladi. Lekin joy nomlari etimologiyasi to'g'risida Mahmud Koshg'ariy keltirgan ma'lumotlarni sinchiklab o'rganish zarur.

«Devonu lug'otit turk»dagi toponimlarning biz uchun yana bir qimmatli tomoni ularning grammatik xususiyatlaridir. Ma'lumki, joy nomlarining etimologiyasidan tashqari grammatik tuzilishiga qarab ham ularning qaysi tilga, qaysi davrga oid ekanligini ma'lum darajada aniqlash

mumkin.

Hozirgi turkiy toponimlarning asosiy qismi ikki va uch komponentdan, ya'ni tarkibiy qismdan iborat. «Devon»dagi joy nomlarining yarmidan ko'pi bir komponentli nomlar. Masalan, *Yamak, Yofinj, Alush, Azig', Abul, Etil, Udun, Yamar, Ala, Urang, Qo'ju, Bukur, Talas, Qabus, Quya, Toman, Koson, Xuzar, Chog'la, Barxan, Sabran, Sitg'un, Tovg'ach, Barjug', Tartuq, Tayiz, Ko'rung, Qazvin* kabilar ana shular jumlasidan. Ikki komponentlilar u qadar ko'p emas: *Ikkiko'z, Oqsoy, Oqterak, Olayig'och, Beshbaliq, Yangibaliq, Qorayig'och, Badalart, Buqachart, Boyyig'och, Yulduzko'l* kabilar. Bu toponimlarning birinchi komponenti sifat, ikkinchi komponenti esa ot (geografik atama). Ikki komponentlilar grammatik tuzilishi jihatidan hozirgi toponimlardan farq qilmaydi. Uch komponentlilar esa atigi bir nechta: *O'rungqosho'kuz, Qoraqosho'kuz, To'rig'arttayiz.*

Yana shu narsa xarakterliki, «Devon»da qayd qilingan joy nomlarining yarmidan ko'pi ikki bo'g'indan iborat. Demak, ilgarilari joy nomlari ixcham, sodda bo'lgan. Ko'p komponentli, butun bir iboradan tuzilgan *Yo'ldoshning oti uchgan* (Zomin tumani), *Amin Mulla pichan chopgan* (Boshqirdiston), *Hasan toshtergan* (Baxmal tumani), *Chuqursoyning tangisi* (Zomin tumani) kabi mikrotoponimlar esa keyingi davrlarda vujudga kelgan.

Etnonimlar haqida. «Devon»da juda ko'p xalq, qabila, toifa nomlari – etnonimlar tilga olingan. Mahmud Koshg'ariy «Devon»ning bosh qismida turk qabilalari haqida so'z yuritib: *bajanak, qipchoq, o'g'uz, yamak, bashg'irt, basmil, qay, yabaku, tatar, qirg'iz, chigil, tuxsi, yag'ma, ig'roq, jaruq, jumul, uyg'ur, tangut, xitoy;* kitobning lug'at qismida esa

kenjak, arg‘u, qayig‘, bayot, chig‘ay (chig‘an), sug‘doq, uch, qorluq, o‘groq, kucha, buiaq, xalach, aramut, turkman, qiniq, salg‘ur kabi etnonimlarni ham tilga olgan.

Bizning fikrimizcha, toponimika uchun yana bir ahamiyatli manba «Devon»da anchagina uchraydigan etnotoponimlardir. *Aramut* (joy nomi), *Arg‘u* (shahar), *Bulg‘or* dengizi, *Bulg‘or* shahri, *Kenjak sangir* (shahar), *Turk* (shahar), *Tavg‘ach* (mamlakat), *Uyg‘ur* (viloyat), *Yabaqu* (suv nomi), *Yag‘ma* (qishloq nomi), *Yamak* (choi nomi) kabilar aslida etnotoponimlardir. Bundan tashqari, doira xaritada ham *G‘uziya, Qipchoq yurti, Basmil cho‘li* singari bir qancha o‘lkalar tilga olingan. Demak, «Devonu lug‘otit turk»dan ayni vaqtda etnonimlar va etnotoponimlar to‘g‘risida ham juda boy material topish mumkin.

Biroq etnonimlarning etimologiyasi to‘g‘risida Mahmud Koshg‘ariy keltirgan rivoyatlarning hammasini ham to‘g‘ri deb bo‘lmaydi, Masalan, u *turkman* – «turkmonand», ya‘ni «turkka o‘xshash», *chigil* – «chi gil», ya‘ni «bu qanday joy», *uyg‘ur* «xud xo‘r», ya‘ni «o‘zi topib yeydigan» degan so‘z bo‘lib, bu turk qabilalarining nomlari forscha, degan xulosani bildirgan. Tanqidiy foydalanilsa, bu ma‘lumotlar etnografiya, shuningdek, toponimika uchun ishonchli va boy material bo‘lib xizmat qiladi.

Kishi ismlari haqida. Ismlar va toponimlar qadimdan bir-biri bilan bog‘liq. Qanchadan qancha toponimlar kishi ismlari bilan atalgan bo‘lsa, bir qancha ismlar toponimiardan kelib chiqqan.

«Devon»dagi kishilar ismlari shu jihatdan qimmatliki, bir necha arabcha ismlarni istisno qilganda, kishi ismlarining deyarli hammasi qadimiy turkiy bo‘lib, hozirgi vaqtda iste‘moldan chiqib ketgan.

«Devonu lug‘otit turk»dagi 60 dan ortiq kishi ismlari orasida xonlarning, pahlavonlarning, urug‘ boshliqlarining, oddiy kishilarning ismlari, laqablari bor.

Akademik I.Y.Krachkovskiy musulmon mamlakatlarida qullarga va cho‘rilarga *Yoqut*, *Zumrad*, *Kofur* (kamfara) kabi asl toshlar yoki xushbo‘y moddalar nomlarini qo‘yish rasm bo‘lgan, deb yozgan edi. Mahmud Koshg‘ariy ham bu fikrni isbotlaydi. Demak, Kumush, Tilla (ba‘zan Oltin) kabi qimmatbaho metall nomlari bilan atalgan ismlar ham dastlab qul va cho‘rilarga qo‘yilgan.

Mahmud Koshg‘ariy ba‘zi ismlarning etimologiyasini ham aytib o‘tgan. *Bektur* – «o‘rningda bek tur, uzoq yasha», *To‘g‘ril* – yirtqich qush nomi, *So‘kman* – «jang saflarini sindiruvchi», *Burslan* – «qoplon», *Suli* – Sulayman so‘zining qisqargani va h.k. Bir qancha ismlarni izohsiz tushunish mumkin: *Bug‘raxon* (*bug‘ra*, *buvra* – erkak tuya), *Barsxon* (*bars* – qoplonning bir turi, bu so‘z asli turkiy, yo‘lbars esa «yo‘l-yo‘l bars» demak), *Qilichxon*, *Turumtoy* (yirtqich qush), *Arslon tegin* va h.k. *Atish*, *Utush*, *Abi*, *Buluch*, *Tutush*, *Tekish* kabi ismlarning semantikasi esa biz uchun aniq emas.

Ismlarning grammatik xususiyati diqqatga sazovor: ularning 75-80 foizi bir bo‘g‘inli (Turk, Qaz, Shu va b.) yoki ikki bo‘g‘inli sodda, ixcham ismlar (Qavan, Qo‘tan, Beklan, Chug‘lan va h.k.). «Devon»dagi toponimlar bilan ismlar shu jihatdan bir-biriga o‘xshaydi.

Qadimgi ismlar, ya’ni antroponimlar toponimikada juda katta ahamiyatga ega. A.I.Popov Dorogobi, Radonej, Jitomir, Ratmirovo singari toponimlar qadimgi sharqiy slavyan ismlaridan olingan, deb yozadi. O‘rta Osiyoda esa qadimgi turk ismlaridan kelib chiqqan

nomlarni ajratish oson emas. Shu jihatdan Mahmud Koshg'ariyning antroponimlar haqidagi fikri juda qimmatli. Barman shahri Afrosiyobning o'g'li *Barman* nomi bilan atalgan, *Barsg'an* – Afrosiyobning o'g'li Barsg'an (to'g'risi – Barsxon) qurgan shahar. Ana shuning uchun ham shunday nom olgan. Ba'zi birovlar esa bu shahar uyg'urlar begi otboqarining ismi Barsg'on ismiga nisbat berilib, Barsg'on deb atalgan deyilar. *Shu* – turklar shohi. U fath qilib qurdirgan shahar. *Qazvin* – Afrosiyobning qizi Qaz qurgan shahar bo'lib, asli «qaz o'yini» demakdir. Qaz suvi – Ila vodiysidagi katta bir yo'l. Afrosiyobning qizi – Qaz uning qirg'og'iga bir shahar qurgani uchun shunday nom olgan.

Qadimgi kishi ismlariga nisbat berib atalgan joy nomlarini O'rta Osiyo xaritasidan topish toponimchilar oldida turgan muhim vazifalardan.

4-mavzu:

«HUDUD UL-OLAM»

«Hudud ul-olam» («Dunyoning hadlari») tarixiy-geografik asar bo'lib, 982-983-yillarda fors-tojik tilida noma'lum muallif tomonidan yozilgan. Asarda yer kurrasining inson yashab turgan (to'rtidan bir) qismidagi mamlakatlar iqlimi, tabiati, xalqlari, urf-odatlarini, mashg'ulotlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Qo'lyozmani 1892-yilda tarjimon Abulfazl Gulpayoganiy Buxorodan topib, 1893-yil sharqshunos A.G.Tumanskiyga bergan. 1930-yili V.V.Bartold «Hudud ul-olam» matnini so'zboshi va izohlar bilan rus tilida, 1937-yili rus sharqshunosi V.F.Minorskiy ingliz tilida nashr ettirgan.

Professor H.Hasanov o'zining «O'rta Osiyolik geograf va sayyohlar» kitobida (Toshkent, 1964) «Hudud ul-olam» haqida katta maqola yozgan

va talay qismining o‘zbekcha tarjimasini keltirgan. «Hudud ul-
 olam»ning mazmun-mundarijasi haqida va raqamlab chiqqan bo‘limlari
 nomiga qarab tasavvur hosil qilish mumkin:

Hududlar nomi	Hududlar nomi
Muqaddima	Xuziston viloyati va uning shaharlari
Yerning hadlari, obodonligi va vayronalari	Daylamon viloyati va uning shaharlari
Dengizlar va qo‘ltiqlar	Iroq viloyati va uning shaharlari
Orollar (jaziraho).	Jazira viloyati va uning shaharlari
Tog‘lar va ularning bag‘ridagi ma’danlar	Ozarbodgon viloyati va Arminiya hamda Arron viloyati
Daryolar	Arab viloyati va uning shaharlari
Cho‘llar va qumliklar (biyobonho va regho)	Shom viloyati va uning shaharlari
Jahon viloyatlari (nohiyathoyi jahon)	Misr viloyati va uning shaharlari
Chiniston viloyatining xosiyati	Mag‘rib viloyati va uning shaharlari
Hindiston viloyati	Andalus viloyati va uning shaharlari

	shaharlari
Tibet viloyati va uning shaharlari	Rum viloyati va uning shaharlari
To‘g‘uzg‘uz viloyati va uning shaharlari	Saqalob viloyati
Yag‘mo viloyati va uning shaharlari	Rus viloyati va uning shaharlari
Xirg‘iz (qirg‘iz) viloyati	Ichki Bulg‘or viloyati
Xallux (qarluq) viloyati va uning shaharlari	Mirvat viloyati
Jikil viloyati	Bajanoki Xazar viloyati
Tuxsi viloyati va uning shaharlari	Olon viloyati va uning shaharlari
Kimok viloyati va uning shaharlari	Sarir viloyati va uning shaharlari
G‘uz viloyati	Xazarlar viloyati
Bajonaki Turk viloyati	Barados viloyati
Xifchoq (qipchoq) viloyati	Burtos viloyati
Majg‘ari viloyati	Vanandar viloyati
Xuroson viloyati va uning shaharlari	Janubdagi obodon yerlar va viloyatlar
Xuroson chekkalari va uning shaharlari	Zangiston viloyati va uning shaharlari
Movarounnahr viloyati va uning shaharlari	Zobaj viloyati va uning shaharlari

Movarounnahr chekkalari va uning shaharlari	Habasha viloyati va uning shaharlari
Sind viloyati va uning shaharlari	Buja viloyati
Kirmon viloyati va uning shaharlari	Nuba viloyati
Bors (Fors) viloyati va uning shaharlari	Sudon viloyati va uning shaharlari
Jibol viloyati va uning shaharlari	Kitob oxiri

Ko‘rinadiki, «Hudud ul-olam» jahonning barcha mamlakatlarini tasvirlab bergan geografik, etnografik va iqtisodiy ma’lumotnomadir. Asarning fors tilida yozilganligi o‘sha davrda (X asr) mahalliy fors-tojik madaniyatining ancha yuksak bo‘lganidan darak beradi.

«Hudud ul-olam» geografiyasidagi ayrim geografik nomlar haqida so‘z yuritamiz.

Movarounnahr tog‘lari. H.Hasanov yozishicha, «Hudud ul-olam»da O‘rta Osiyoning janubidagi Bo‘lur, Samarqand, Shiknon, ya’ni Xon Vaqon tog‘lari, Buttamon ichkarisidagi va Movarounnahrga yoyilgan Ushrushona, Xuttalon, Chag‘oniyon tog‘lari, ularning tarmoqlari batafsil tasvirlangan. So‘ngra Movarounnahrdagi ko‘pgina tog‘ tarmoqlari nomsiz bayon etilgan,

Bu yerda keltirilgan oronimlardan ba’zi birlarini izohlaymiz. Bulardan toponimika uchun eng qiziqarlisi **Buttamon** tog‘laridir. Arab geograflarida **Buttam** yoki **Butman** shaklida tilga olingan. V.V.Bartoldning gaplariga qaraganda, Amudaryo bilan Sirdaiyoning yuqori oqimlari oralig‘idagi katta tog‘li o‘lka shu nom bilan atalgan, shu bilan birga bu tog‘li o‘lkani

Birinchi Buttam, o'rtta Buttam va Tashqi Buttam deb uch qismga bo'lish rasm bo'lgan. V.V.Bartold Birinchi Buttam hozirgi **Hisor tizmasi**, O'rtta Buttam **Zarafshon** tizmasi, Tashqi Buttam **Turkiston tizmasi** bo'lishi kerak deb hisoblaydi. To'g'risi Buttammi yoki Buttamonmi degan savolga shunday javob berish mumkin. Tog'laming nomlari odatda rus tilida ham, fors-tojik tilida ham ko'plikda talaffuz,etiladi (-on ko'plikni ifodalaydigan qo'shimcha). Chunki tog' tizimi odatda bir qancha tog' tarmoqlaridan iborat bo'ladi. Xuddi shuningdek, Panj daryosi bilan Vaxsh daryosi oralig'i **Xuttal** yoki **Xuttalon** deb atalgan. Arab geograflarida ko'pincha **Xuttal** shaklida qayd qilingan. «Hudud ul-olam» muallifining o'zi o'rtta osiyolik forsi-navis olim bo'lganidan mazkur tog'larni **Xuttalon** shaklida yozgani grammatik jihatdan to'g'ridir. **Chag'oniyon** tog'lari Chag'oniyon ta-rixiy o'lkasi tegrasidagi hozirgi **Bobotog', Boysun, Ko'hitang** tizma-laridir. **Xon** tog'larini H. Hasanov Janubiy Pomirdagi hozirgi **Vahon tizmasi** deb hisoblaydi. **Ushrushona tog'lari** esa Jizzax shahri bilan Xo'jand shaharlari oralig'idagi **Molguzar tizmasi** bo'lsa kerak. Shik-non tog'lari Pomirdagi hozirgi **Shug'non tizmasi**, Samarqand tog'lari esa Samarqand shahri atrofidagi tog'lar ekanligi aniq.

Movarounnahr daryolari. «**Jayxun (Amu)** daryosi Vahon hududidan oqib chiqadi va Bomir (Pomir) viloyati va Shig'noni Vahon hududi orasidan o'tib, Xorazm dengiziga quyiladi».

«...Xarnob (Panj) Qasark tog'ining g'arbidan oqib chiqadi va Badaxshon va Porg'ar (Parxor) orasidan o'tib Jayxunga qo'shiladi».

«Yana bir daryoki, uni **Vaxshob** deydilar, Vaxsh tog'laridan chiqadi, *Vaxsh* (shahri) yaqinida *Jayxunga* quyiladi».

«*Chag'onrud* (Surxondaryo)ki, Chag'oniyondan oqadi va Termiz yonida Jayxunga quyiladi». «...Yana biri **o'zgand** suvidirki, Xallux tog'i (orqasi)dan boshlanib, o'zgand, Bob (Pop), Axsikat, Xo'jand, Banokat shaharlari yonidan o'tadi va to Choch yerlarigacha yetadi, so'ngra Xorazm dengiziga quyiladi».

Demak, muallif Sirdaryoni **o'zgand** (o'zgan) suvi degan, Xallux (Qarluq) tog'i – Tyanshan tog'lari bo'lsa kerak (ilk o'rta asrlarda, Yettisuvda Qarluq davlati bo'lgan). Hozirgi Aysi qishlog'i (Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumani) o'rta asrlarda yirik shahar bo'lgan va Farg'ona vodiysining poytaxti hisoblangan. Bob hozirgi Pop tumanining markazi - Pop shahri. *Banokat* Amir Temur 1392-yilda tiklab o'zining katta o'g'li Shohruh Mirzo nomi bilan **Shohruhiya** deb atagan shahar, xalq tilida bora-bora **Sharqiya** bo'lib ketgan. Ohangaron daryosi-ning bir tarmog'i hozir ham *Sharqiya* deb ataladi. Shahar xarobasi Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumani hududida joylashgan.

«Yana bir daryo (hozirgi Qurshob daryosi) Xurshobdirki, Butta-mon chekkasidan, shimoliy tog'laridan boshlanib, Xurshob shahri yaqinida o'zgandga (Sirdaryoga) quyiladi».

«Yana boshqasi **o'sh** suvidirki, o'zgandga quyiladi». «Yana bir daryo **Qubo** (suvi)dirki, Qubo shahri yaqinida o'zgand (suvi)ga quyiladi». **Qubo** – Farg'ona viloyatidagi Quva soyi va Quva shahridir. «Hudud»da *Norin* daryosi Xatlom shahri nomi bilan Xatlom deb atalgan. «Yana boshqasi Parak daryosidirki, Choch yerlaridan o'tadi, o'zgandga quyiladi. Bu daryolar hammasi qo'shilgandan keyin yaxlit suv **Choch** daryosi deyiladi, arablar (toziyon) bu daryoni **Sayxun** deb ataydilar».

Parak – Chirchiq daryosi. Demak, bosh tomondagisi o‘zgand bo‘lgan, Chirchiq quyilgandan keyin Sirdaryo **Choch** daryosi deb atalgan.

«Hudud» asarida Zarafshon **Buxoro** daryosi deyilgan. Shu ma’lumotlardan ko‘rinadiki, daryolar ko‘pincha shaharlar yoki viloyatlar nomlari bilan atalgan. Vaxsh daryosi – Vaxsh shahri, Chag‘onrud (Chag‘oniyon), O‘zgand suvi – O‘zgand shahri, Xurshob daryosi – Xurshob shahri, Xatlom daryosi – Xatlom shahri, Choch daryosi – Choch (shahri, viloyati), O‘sh daryosi – O‘sh shahri.

«Hudud ul-olam» muallifi Sirdaryoni bir o‘rinda **Hasart** deb atagan. Shunga asoslanib, H. Hasanov bunday xulosa chiqaradi: «Sirdaryo X asrda O‘zbekiston tuprog‘ida *O‘zgand* va *Hasart* nomlari bilan atalgani ma’lum bo‘ladi. Shunday qilib, *Harast* mahalliy nomlardan biriki, qadimgi greklarning kitoblarida yozilgan *Yaksart* shakli o‘shandan o‘zgartiribroq olingandir». (H.Hasanov «Hudud ul-olam» geografiyasida tuzgan xaritada Sirdaryo Xasart deb yozilgan).

Movarounnahr viloyatlari va shaharlari. «Movarounnahr – keng, obod va juda ko‘rkam o‘lka. Turkistonning darvozasi va savdogarlar maskanidir». Asarda O‘zbekistonning shaharlari va ayrim viloyatlari quyidagicha ta’riflanadi:

«Buxoro – azim shahar, Movarounnahrning eng obod shahri».

«Paykend – yuztacha rabot (Narshaxiyning «Buxoro tarixi»da mingdan ortiq rabot) bo‘lgan kichik shaharcha». (Paykend, Baykand, Poykand nomi bilan ma’lum bo‘lgan ilk o‘rta asr shahrining vayronasi Buxoroning janubi-g‘arbiy biqinida).

«Sug‘d – sharqiy ellar orasida eng obod joydir. Oqar suvlari bor,

daraxtlari ko‘p, iqlimi bahavo».

«Tavovis – Buxoroning Sug‘d chegarasidagi kichik bir shahar. Bu yerda har yili bir kunlik bozor bo‘ladi». Tavovis Buxorodan 7-8 farsax narida bo‘lgan. Uning oldingi nomi Arfud yoki Arqud edi. Arabchada Tavovis «Tovuslar» demakdir (Narshaxiyning «Buxoro tarixi» kitobining o‘zbekcha nashrida shahar nomi Tavois deb berilgan).

«Karmina, Dabusi, Arbinjon Sug‘dning kichikroq shaharlaridan. Kushoniya – Sug‘dning eng obod shaharlaridan...»

«Samarqand – buyuk, obod va ne‘mati bisyor shahar. Bu yerga dunyoning hamma mamlakatlaridan savdogarlar keladi...»

«Kesh – issiq mintaqa shaharlaridan biri. U yerda yog‘ingarchilik ko‘p bo‘ladi...»

«Termiz – Jayxun bo‘yidagi obod shaharlardan. Bu shahar Xatlon va Chag‘oniyonning savdo markazidir...»

«Chag‘oniyon – ziroatchilik va chorvachilik uchun qulay va keng joy, ammo xalqi juda kambag‘al».

«Bu viloyatlarning poytaxti Chag‘oniyon shahridir, tog‘ etagida bino bo‘libdir».

«Zomin – Usrushno shaharlaridan, Xo‘jand bilan Farg‘ona yo‘lida. Mustahkam qo‘rg‘oni bor».

«Dizak – kichik bir shahar, suv bo‘yida...»

«Farg‘ona – ulug‘, obod va juda go‘zal viloyatdir. Uning tog‘lari, tekis joylari, oqar suvlari va shaharlari ko‘p...»

«Chatg‘al (Chotqol) – Farg‘onaning bir qismi, tog‘lar orasida o‘r-qir yerda joylashgan, kichik shahar va qishloqlari ko‘p. Ot va qo‘y boqiladi, konlari ham bor».

«Axsikat – Farg‘onaning poytaxti, amirning qarorgohi. Bu katta shahar, Hasart daryosi (Sirdaryo) bo‘yida».

«So‘x – tog‘lar orasida. Buttamon bilan Farg‘ona chegarasidagi joy, 60 ta qishlog‘i bor».

«Qubo (Quva) – Farg‘onaning eng obod katta shahri...»

«Shosh – katta va obod, ko‘rkam joydir. Shoshning poytaxti Binkat».

«Nujkat (Nujakat) – kichik bir shahar, bu yerda Parak (Chirchiq) va Hasart (Xashart – Sirdaryo) daryolarida suzadigan qayiqchilar yashaydi». (V.V.Bartold tarjimasida: Parak va Xashart qirg‘oqlarida ishlaydigan qayiqchilar Nujkatdan chiqqan).

«Banokat (singari va boshqa) kichik shaharlarda kamoni shoshiy yasaladi...»

«Kot – Xorazmning poytaxti... Bu shahar Turk, Turkiston, Movaraunnahr va Xazarning savdo markazidir. Uning hokimi Xorazmshoh deb ataladi.

Bu shahar va viloyatlarning ko‘plari hamon bundan ming yildan ko‘proq oldingiday talaffuz etiladi yoki salgina farq qiladi: Buxoro, Samarqand, Termiz, Zomin, Farg‘ona, Chatg‘ol (Chotqol), Axsikat (Aksi), So‘x, Awal, Qubo (Quva), Xiva, Karmina (Karmana), ba’zi birlari endi butunlay boshqacha nomlangan.

Kesh – Shahrisabz, Chag‘oniyon (arablarda Sag‘oniyon) viloyati – Surxon vodiysi, Chag‘oniyon shahri – Denov.

Choch, Shosh – Toshkent shahri va viloyati.

Kot – Shayx - Abbosvali (Shabbos), hozirgi Beruniy shahri.

Gurganj, arablarda Jurjaniya – hozirgi Urganch shahri;

Banokat – Shohruhiya (buzilib ketgan).

H.Hasanov ta'kidlaganidek, «Hudud-ul olam» muallifi O'rta Osiyo, xususan, O'zbekistonning geografik qiyofasini tog'lari, daryolari, shaharlarini o'z o'rnida tasvirlagan. Asarda keltirilgan ko'p sonli tarixiy toponimlar esa vatanimiz joy nomlarining naqadar qadimiy ekanligi isbotidir.

Quyida keltirilgan bir misol toponimlarning tarixiy ahamiyatini ko'rsatib turadi. «Hudud» qo'lyozmasining 25-sahifasida shunday deyiladi: «Movarounnahrning chekkasida Samarqandak («Kichik Samarqand») qishlog'i bor edi, unda hindlar, tibetliklar, voxonliklar va musulmonlar yashaganlar».

Bu qishloqning qayerda joylashganligini bilish uchun tarixga murojaat qilaylik.

Arablar O'rta Osiyoni bosib olgandan keyin, 721-yilda Sug'dda arablarga qarshi qo'zg'olon ko'tariladi. Sug'diylar *“endi arablar bizlarni turklarga yordamlashganlikda ayblab jazolashlari mumkin”*, deb xavotirga tushadi. Sug'diylardan o'n ming kishi arablarga taslim bo'ladilar va islom dinini qabul qilishga qaror qiladi. Boshqalari esa Farg'ona podshosi Alatarga elchi yuborib, o'z shahridan boshpana berishini va zarur bo'lib qolsa arablardan himoya qilishini so'raydi. Biroq podshoning onasi o'g'liga sug'diylarni shaharga kiritmaslikni va ularga Farg'onaning tog' rustoqlaridan (bo'lislaridan) biriga joylashtirishni maslahat beradi. Shundan so'ng farg'onaliklar sug'diylarga Isfara rustog'idagi torgina Isom darasini bo'shatib beradi.

Tarixiy manbalarda Movarounnahrning janubi-sharqiy burchagida *Samarqandak* qishlog'i qayd qilingan (rus tilidagi xaritalarda Samarkandek deb yozilgan). Bu Qirg'iziston Respublikasi Batken viloyatining Batken

tumanidagi *Samarqandiq* (qirg'izcha) deb talaffuz qilinadigan qishloqdir.

Ana shu – «Samarqandiq» «Hudud ul-olam»dagi Samarqandak qishlog'ining o'zginasi.

Gap shundaki, sug'diylar mirishkor dehqon, bog'bon xalq bo'lgan, shaharlarida hunarmandchilik, savdo rivojlangan. Ular Buyuk ipak yo'li bo'yida barpo qilgan shahar, qishloqlarning ba'zilarini bosh shahri nomi bilan **Samarqand** deb atashganlar (masalan, Yettisuvdagi qadimgi Mo'g'ulistonda XIII asrdayoq **Samarqand** shahri bo'lgan, Qozog'istondagi Temirtov shahri **Samarqand** deb atalgan). Ana shunday aholi punktlaridan biri shubhasiz hozirgi Samarqandiq ovulidir. Umuman, «Hudud ul-olam»da Movarounnahr, xususan, O'zbekiston geografiyasi, ayniqsa, qadimiy toponimiyasi haqida talaygina ma'lumotlar olish mumkin.

5-mavzu:

Xorazm toponimikasi haqida¹

Xorazm juda qadimiy va boy tarixga ega. Xorazm vohasi Amudaryoning quyi oqimida joylashgan bo'lib, unda turli millat vakillari (o'zbeklar, turkmanlar, qozoqlar, qoraqalpoqlar va boshqa millatlar) yashaydi.

Bu o'lka qadimgi madaniyat o'choqlaridan biridir. Mana shuning uchun ham mashhur tarixchi-arxeolog olim S.P.Tolstov bu o'lkani «O'rta Osiyoning Misri» degan edi.²

Xorazm hududida bizning eramizdan ancha ilgari Xorazm davlati tashkil topgan bo'lib, u Urartu davlatidan keyingi qadimgi davlat edi.

¹ Ушбу матн Ўткир Ражабовнинг “Хоразм топонимияси индикаторларининг лисоний таҳлили” номли филол.фанл.номз. диссертациясидан олинди.

² Толстов С.П. Древний Хорезм. – М., 1948. - С.8.

Xorazmliklar o‘ziga xos madaniyat namunalarini yaratdiki, bu sharq xalqlarining tarixiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Shuningdek O‘rta Osiyoning mashhur madaniyat va ilmiy markazlaridan bo‘lgan bu o‘lka O‘rta Osiyo va Yevropa mamlakatlari bilan tranzit savdo markazi³ ham edi. Xorazm o‘lkasi Xitoy, Eron, Hindiston kabi mamlakatlar bilan doimiy aloqada bo‘lgan. Bu aloqa xalq tili va madaniyatida⁴ o‘z izini qoldirgan.

Ma’lumki, til jihatdan shimoliy Xorazm o‘zbek tilining qipchoq lahjasiga, Janubiy Xorazm esa o‘g‘uz lahjasiga taalluqlidir. Xorazmda o‘zbek tilining o‘g‘uz va qipchoq lahjalarining mavjudligi Xorazm tarixi bilan uzviy bog‘liq.

Arab, mo‘g‘ul, keyinchalik Shayboniy hujumlari davrida ham Xorazm Shimoliy va Janubiy deb ikki qismga ajratilgan. Prof. S.P.Tolstovning ko‘rsatishicha, Xorazmning ikki qismga ajratilishi arablar hujumidan ilgari, juda qadim zamonlardayoq urf bo‘lgan.

Bunday holat, ya’ni Xorazmning ikki qismga bo‘linishi va ma’lum tarixiy davrlarda ularning har biri boshqa-boshqa davlatlar tarkibida bo‘lishi Xorazmda o‘zbek tilining ikki xil lahjasi saqlanishiga olib kelgan.

Til jihatidan Eron tillarining sharqiy guruhiga mansub bo‘lgan tilda gaplashuvchi Xorazmning qadimgi aholisi bo‘lmish xorazmiylar qadimdan har xil xalq va mintaqa vakillari bilan aralashgan⁵. Ko‘p sonli ko‘chmanchi turkiy qabilalarning Xorazmda o‘troqlashib qolishi⁶

³ История Хорезма. – Т., 1976. -С.3.

⁴ Трофимова Т.А. Древнее население Хорезма по данным полеантропологии. - М,1959. – С.24.

⁵ Трофимова Т.А. Ўша асар. - С.37,13,14.

⁶ История УзССР. Т. 1. - 1956. - С. 371.

xorazmiylar tilining asta-sekin yo‘qola borishiga va Xorazmda turkiy til (o‘g‘uz va qipchoq) tilining «g‘olib til» bo‘lib qolishiga sabab bo‘lgan. Lekin shunga qaramay, XII-XIV asrlargacha Xorazmda xorazmiylar tili saqlangan, aniqrog‘i XIV asrning o‘rtalarida va oxirida Janubiy Xorazmda ham, Shimoliy Xorazmda ham xorazmiylar tilini biladigan kishilar bo‘lgan⁷. Bu tilga oid leksik qatlam Xorazm shevalarida, jumladan uning toponimiyasida hozirgacha saqlangan.

Xorazmiylar tili o‘z o‘rnini turkiy tilga bergandan so‘ng ham Janubiy Xorazm aholisi o‘g‘uzlar bilan, Shimoliy Xorazm aholisi esa qipchoqlar bilan ko‘proq iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatda bo‘lganlar. Bu xil jarayonlar, albatta, Xorazmda ikki: xorazm-o‘g‘uz va xorazm-qipchoq lahjalarining vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Umuman, Xorazm shevalarining tarixi va ularning lingvistik xususiyatlari tilshunos olimlar tomonidan atroflicha tekshirilgan. Shu boisdan bu masalaga batafsil to‘xtashga zaruriyat yo‘q deb hisoblaymiz. Ammo Xorazmdagi joy nomlari ular tarkibida qatnashadigan toponimik indikatorlar hali etarlicha o‘rganilmagan.

Xorazm toponimlari juda boy va rang-barangdir. Xorazmdagi joy nomlarini o‘rganishda prof. F.Abdullaevning xizmatlari katta. Uning ko‘plab asarlarida toponimlarning etimologiyasi haqida dastlabki fikrlar bildirilgan edi⁸.

Prof. S.P.Tolstov, Ya.G‘ulomov, A.Yu.Yakubovskiy, P.P.Ivanov, M.Yo‘ldoshev, T.A.Jdanko, L.S.Tolstova kabi olimlarning asarlarida

⁷ Фрейман А.А. Хорезмский язык, 1. –М.-Л., 1951. - С. 8-9; Болин С.Л. Новый источник для изучения хорезмийского языка. –М.-Л., 1939. - С.87.

⁸ Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. 1. – Т., 1961. Ўша муаллиф. Фонетика Хорезмского говора. – Т.: Фан, 1967; Ўша муаллиф. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. –Т.: Фан, 1978 ва б.

ham Xorazmdagi ko‘pgina nomlar haqida qimmatli ma’lumotlar bor⁹.

Xorazm shevalarini tekshirgan A.Ishaev, A.Madrahimov, E.O‘rozov, X.Boboniyozov va boshqalarning tadqiqotlarida ham ba’zi Xorazm toponimlarining lingvistik xususiyatlari va etimologiyasi tahlil etildi.¹⁰

Prof. Z.Do‘simov ham o‘zining doktorlik ishini Xorazm toponimlarini o‘rganishga bag‘ishlagan edi¹¹.

Xorazm toponimlari etimologik jihatdan asosan turkiy tillarga mansub. Lekin ular tarkibidan hind-yevropa (xususan, fors, xorazmiy, osetin), arab, mo‘g‘ul, shuningdek g‘arb tillari elementlari mavjud. Xorazm toponimlarini kuzatishdan shu narsa aniqlandiki, bu hududda nomlarning turli xilda yasalishi affiksastiya, kompozistiya, onomastik konversiya usullari muhim o‘rin tutadi. Toponimlar strukturasi turkiy tillar so‘z yasalishi sistemasida aktiv ishtirok etadigan (-lik, -cha, -ma va boshqa) formantlardan tashqari eron tillariga xos –ak, -an, - dan, -

⁹ Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М., 1958; Он же. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М., 1962; Ўша муаллиф. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Т., 1964; Ғуломов. Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихидан. – Т., 1959; Якубовский А.Ю. Развалины Ургенча // Из в. ГАИМК. Т. VI. Вып. 2. – Л., 1930; Жданко Т.А. Каракалпаки Хорезмского оазиса. – М., 1952; Он же. Очерки истории этнографии каракалпаков. – М.–Л., 1950; Йўлдошев М. Хева хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Т., 1957; Толстова Л.С. Некоторые вопросы исторической ономастики Хорезмской оазиса. Этнография имен. - М., 1971; Она же. Отголоски ранних этапов этногенеза народов Средней Азии в её исторической ономастике // Ономастика Средней Азии. – М., 1978 и др.

¹⁰ Ишаев А. Манғит шеvasининг фонетик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дис. –Т., 1962; Жуманазаров Ю. Ўзбек тили Хазорасп шеvasининг морфологик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дис. – Т., 1960; ўша муаллиф. Ўзбек тили ва Жанубий Хоразм диалекти. – Т., 1971; Уразов Э. Узбекский говор Южной Каракалпакии: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т., 1968; ўша муаллиф. Жанубий Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. - Т., 1978; Мадрахимов А. Исследование по лексике огузского наречие узбекского языка: Дис. ... д-ра филол. наук. – Т., 1978; ўша муаллиф. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. – Т., 1974 ва б.

¹¹ Дўсимов З. Топонимы Северного Хорезма: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т., 1970; ўша муаллиф. Хоразм топонимларининг тарихий-лингвистик таҳлили: Автореф. дис. ... д-ра филл. наук. – Т., 1986.

peşh, -sar, -poy kabi o‘nlab qo‘shimchalar uchraydiki, ularning ba’zilari qayd etilgan tillar sistemasida hozir ham aktiv qatnashadi. Tekshirilayotgan hududda umumturkiy toponimik sistemasiga mansub indikatorlardan tashqari *yap* (yop), *arna* (arna), *salma* (solma), *qala*, *avyl*, *da:a* (daha), *topar* (to‘por) va hokazo regional xarakterdagi terminlar ham mavjuddir.

Xorazm toponimlari tarkibida hozirgi adabiy tilimizda uchramaydigan, unsurlar saqlanganki, ular ma’lum bir leksik qatlamni tashkil etadi: *Yekänlyköl* – *yekän* (qamishsimon o‘simlik), *Aqvashlyq* (ovul) – *aqbash* (sho‘r erda o‘sadigan o‘simlik), *Sazaqllyq* (ovul) – *sazaq* (saksovul), *Dashyasqa - yasqa* (sayoz kechuv joyi), *Boyanlyköl* – *boyan* (sertomir o‘simlik).

Ammo Xorazm onomastik tizimida ba’zi o‘ziga xos toponimik indikatorlar uchraydi. Ba’zi indikatorlar asli predikativ munosabatda bo‘lgan. Hozirgi o‘zbek tilida ham bu tipdagi qo‘shma so‘zlar uchraydi, ya’ni *ichketar*, *böyöesar* kabi. Ularning tadrijiy rivoji aslida shunday bo‘lishi lozim deb ko‘rsatiladi: bularning birinchi komponenti bosh kelishikdagi so‘zga teng (ich, böy) shunga bog‘lanuvchi fe‘l esa asli kesim kabi shakllanishi lozim (ketadi, ösadi kabi). Bunday predikativ sintagmani atributiv formaga kiritish zaruriyatidan sifatdosh formasi qo‘shilgan.¹²

Joy nomlari tarkibida qatnashib, ular ifodalagan obyektning turiga ishora qiluvchi indikator so‘zlar² toponimiyada muhim o‘rin tutadi. Avvalo ular toponimning ma’nosini belgilashda kalit vazifasini bajaradi.

¹² Ўзбек тили грамматикаси. Т.І. - Б.202.

² Дўсимов З. Топонимик индикаторлар // Ўзбек тили ва адабиёти. -1972. - №5. – Б. 71-74.

Bundan tashqari indikatorlar ifodalayotgan obyekt haqida ma'lum axborot berish qobiliyatiga ega.

Toponim va indikatorlar bir-biri bilan genetik jihatdan bog'liqdir. Dastlabki toponimlar indikatorlardan o'sib chiqqan. Chunki qadimda yashagan kishilar geografik obyektlarni oddiygina turdosh otlar bilan ataganlar: *tog'*, *suv*, *qishloq* kabi. Keyinchalik ishlab chiqarish rivojlangan sayin, kishilarning tabiat bilan munosabati kengaygandan keyin, obyektlarni bir-biridan farqlash ehtiyoji tug'ilgan va natijada atoqli otlar shu jumladan toponimlar vujudga keldi. Shu boisdan ham hozirgi davrda hatto daryo, tog'lar, shaharlar nomlari asosida turdosh otlar, aniqrog'i indikator yotadi: Amudaryoning qadimgi nomi bo'lmish O'kuz, shuningdek, Don, Dnepr, Dunay, «suv», *kat* «qishloq», Karpat «tosh, chœqqi» va hokazo.

Toponimlar va indikatorlarning genetik aloqasi ularni bir xil hodisa deb qarashga asos bermaydi. Ular garchi o'zaro aloqador bo'lsalar ham bir-biridan farqlanadi. Indikatorlar bir xildagi geografik predmetlarning guruhini nomlaydi, toponimlar esa geografik obyektlarning bittasini boshqalardan ajratib ko'rsatadi. Indikatorlar tushuncha ifodalaydi, toponimlar bunday xususiyatga ega emas. E.Kurilovichning ta'kidlashicha, indikatorlar ifodalaydi, toponimlar nomlaydi¹³.

Boshqacha aytganda indikatorlar va toponimlar bir kategoriyaning ikki shaklini tashkil etadi: indikatorlar toponim tarkibidagi turdosh so'z, toponimlar esa atoqli otlar sanaladi. Bu ikki leksik guruhdagi elementlar doimo bir-biriga o'tib turadi. Yu.A.Karpenko indikatorlarning

¹³ Курилович Е. Очерки по лингвистике. - М, 1962. - С.37.

abstraksiyalash va konkretlash xususiyatini qayd etadi¹⁴.

Agar toponimlar o'zining geografik obyektini ifodalovchi differensial belgisini yo'qotar ekan, ular indikatorlarga aylanadi. Misol: *o'g'uz, kat* kabi. Indikator mabodo o'zi ifodalayotgan geografik obyektning biror ajratuvchi belgisi bilan qo'llanar ekan, u albatta toponimga aylanadi.

Qiyos qiling: tog'-indikator; Qoratog', Olatog'-toponim; «suv» - indikator; Qorasuv, Ko'ksuv – toponim; «kent» - indikator; Toshkent, Beshkent – toponim.

Indikatorlarning qo'llanishi va funksional doirasi davr o'tishi bilan o'zgarib boradi. Ayrim indikatorlar sermahsul, ba'zilar esa juda kam qo'llanadi va davr o'tishi bilan unutiladi.

Ularning ma'nosini maxsus lingvistik tekshirish orqali aniqlash mumkin. Qizig'i shundaki, ma'nosi unutilgan indikatorlar toponimik formant shaklida qo'llanadi. E.M.Murzaev ko'pgina toponimik formantlar indikatorlardan kelib chiqqanini qayd etgan edi¹⁵.

O'zbekiston toponimiyasidagi **kat, rabot, yop** kabi indikatorlarning hozirgi davrda yangi nomlar yasashda ishtirok etmasligi va ularning o'rnini **qishloq, kanal** so'zlari egallaganligini ularni vazifasiga ko'ra formantlarga yaqinlashtirib qo'yadi. Bu indikatorlar hozir faqat toponimlar tarkibidagina mavjud. Indikatorlarning iste'moldan chiqishi ham qator faktorlar bilan bog'liq. Avvalo bu mazkur territoriyadagi xalqning dunyoqarashi, ijtimoiy va iqtisodiy holati, shuningdek ular tarixida yuz bergan turli o'zgarishlar kabi ekstralingvistik faktorlar bilan

¹⁴ Карпенко Ю.А. Топонимы и географические термины. – С. 37.

¹⁵ Мурзаев Э.М. Местные географические термины и их роль в топонимии // Местные географические термины. - М., 1970. - С. 17.

izohlanadi. Ikkinchidan, indikatorning semantik xiralanishiga va uning unutilishi kabi lingvistik omillar sabab bo‘ladi.

Uning tarkibidagi fonetik, morfologik o‘zgarishlar, semantik torayish kabi hodisalar ham indikatorlar ma’nosining unutila borishiga sabab bo‘ladi.

Shunday qilib, toponimlar va indikatorlarning o‘zaro munosabati genetik xarakterga ega bo‘lishi bilan birga ayni vaqtda ancha murakkabdir. Indikatorlarning joy nomlari bilan aloqa shakllari turlicha:

1. Indikatorlar yolg‘iz holda toponim shaklida uchraydi: **Kat, Arna, Ravat, Qal’a, Saqa, O‘tov** va hokazo.

Indikatorlarning yolg‘iz holda toponimga aylanishi ikki faktor vaqt va territoriya bilan bog‘liqdir. Indikatorlar aslida aniqlovchi so‘z bilan toponimga aylanadi. Ammo davr o‘tishi bilan sintaktik ellipsisga uchraydi. Nom tarkibidagi aniqlovchisi ba’zan buning teskarisi-indikator ham tushib qoladi. Bu albatta nomning kishilar tasavvuriga qanchalik o‘rnashganligi va ularning turmushida toponimning qanchalik ishlatilishi kabi omillarga bog‘liq. Agar nom shu xududdagi kishilar tilida qanchalik aktiv qo‘llansa, ularning tarkibi shuncha silliqlanib qisqara boradi. A.V.Superanskayaning kuzatishicha, tipik nomlar 1-4 ta so‘zdan tashkil topadi. Eng ko‘p qo‘llanuvchi nomlar uch so‘zdan oshmaydi¹⁶. Ularning tarkibi 2-4 morfemalidir. A.V.Moskovichning ta’biri bilan aytganda, bu insonning operativ xususiyatlari bilan bog‘liq¹⁷. Har qanday tilda ikki xil bir-biriga qarama-qarshi tendensiya mavjud: nomlar tarkibiga har xil qo‘shimcha komponentlarni qabul

¹⁶ Суперанская А.В. Ономастические универсалии. - С. 348.

¹⁷ Москвич В.А. О пределах усложненности структуры единый разных знаковых систем // Материалы конференции «Язык как знаковая система особого рода». -М., 1967. -С. 50

qiladi va kengayadi yoki aksincha nomning ifoda qilish funksiyasiga ta'sir qilmaydigan so'zlarni tushirib qoldirish orqali torayadi¹⁸. Bu ikki jarayon tilning, A.Martine qayd etganidek, ifoda vositalarini iqtisod qilishga intilishi natijasida sodir bo'ladi¹⁹.

Shunday qilib, ayrim indikatorlarning yolg'iz holda toponimga aylanishi tilning iqtisod prinsipi bilan bog'liqdir. Nomlar vaqt o'tishi bilan strukturasi soddalashtira boradi.

Indikatorlarning yolg'iz holda toponim bo'lishi hudud ko'lami bilan ham aloqador. Ma'lum hududda yashovchi kishilar kundalik munosabatda joy nomlarining aniqlovchisini tashlab tushirib qoldiradilar. Masalan: Bozorga bormoq, shaharga bormoq, yop bo'yida kabi. Ular uchun qaysi bozor /Jumabozor yoki Yangi bozor/ ekanligi, shahar /Urganch yoki Xiva/ ekanligi, ariqning ham /Xonyopi yoki Qilichboy arna/ qaysi ekanligi ma'lum. So'zlovchi ham tinglovchi ham tasavvurida bir xil obyektни tushunadi.

Bu albatta kichik bir hududda yashovchi kishilar uchun xos holatdir. Chunki bir qishloqda bir kanal yoki bir ko'l bo'lishi mumkin. Agar bunday obyektlar ikki yoki undan ortiq bo'lsa albatta biror differensial belgiga asoslangan aniqlovchi bilan qo'llaniladi. Yuqorida qayd etganimizdek toponim tarkibidan indikatorning tushib qolishi va aniqlovchi yolg'iz shu obyektни ifodalashi ham mumkin. Masalan: Ellik / Ellikqal'a /, Qizil / Qiziljar / Qiyshiq / Qiyshiqqal'a / va hokazo.

2. Indikatorlar aniqlovchi so'z bilan obyektning nomi bo'lib keladi: Bu tip toponimiyada, jumladan Xorazm toponimiyasida eng sermahsul

¹⁸ Суперанская А.В. Ўша асар. -С. 343.

¹⁹ Мартине А. Основы общей лингвистики// Новые в лингвистике. Вып. III. – М., 1963. -С. 543.

va faoldir: Pilqal'a, Dumanqal'a, Sovunchi o'ram, Ko'rpachi o'ram, Oqtepa, Qoratepa va hokazo. Bu tipning eng faol qo'llanishi tabiiy holdir. Chunki toponimning vazifasi bir obyektни xuddi shunday obyektдан farqlashdan iborat ekan. Obyektlarni bir-biridan ajratuvchi differensial belgi indikator oldidagi aniqlovchida namoyon bo'ladi. Toponimning obyekt haqidagi informatsiyasi ham ko'pincha ana shu so'zda mujassamdir. Kishilar obyektни turli xil belgilari asosida farqlaydi. Ta'kidlaganimizdek, bu belgilarni tanlash turli xil faktorlarga bog'liq. Shu boisdan ham indikatorlar turli xil so'zlar bilan qo'llanishi mumkin. Bu so'zlar obyektning hajmini /Katta ko'l, Baland ko'pri/, shaklini /Tumaloq taxta/, sonini /Beshuy/, uzoq-yaqinligini, joylashish o'rnini /Chakkasholikor, Oyoqdøermon/ bu erda bo'lgan bir xarakterlovchi voqeani /Qo'yqirilgan/ va ko'plab boshqa belgilarni anglatishi mumkin. Bunday so'zlar ko'pincha obyektning belgi, xususiyatini ifodalaydi. Shunisi xarakterliki, bunday so'zlar indikatorlar bilan shu daraja yaqinlashganki, ko'pchilik hollarda ular indikatorlarsiz ham obyektlar ifoda eta oladi. Masalan, **chuqur**, **sayoz** kabi so'zlar suv obyektlariga nisbatan, **yuqori**, **oyoq** so'zlari suvning /kanal, arna kabi/ boshi va oxirida joylashgan aholi punktlariga, **uzoq**, **yaqin** so'zlari joy nomlariga, **achchiq**, **chuchuk** so'zlari koellarga nisbatan qo'llaniladi. Ba'zan ular yolg'iz holda ham toponim sifatida qo'llana oladi. Shu boisdan ham bu tipdagi so'zlarni *funksional indikatorlar* deb atash to'g'riroq bo'lar edi. Har holda bunday funksiyani tildagi mos so'zlar ham bajara olmaydi. Umuman, obyektning belgisi ham cheksiz bo'lmagani kabi ularni ifodalovchi so'zlar ham chegaralangandir.

Shunday ekan, toponimlarning tarkibida qatnashib, obyektning

belgi-xususiyatini bildiruvchi va o'рни bilan indikatorlar funksiyasini bajaruvchi soʻzlarni funksional indikatorlar deyish lozim.

Z. Indikatorlar turli affikslar bilan ham qoʻllanadi.

4. Indikatorlarning juft holda qoʻllanishi ikki holat bilan bogʻliqdir. Avvalo indikatorning dastlabki maʼnosi bilan keyingi terminlik maʼnolari keskin chegaralanmagan hollarda indikatorlar juft holda qoʻllaniladi: Arnasaqa, Shoʻrqalʼa, Boʻzqalʼa, Qoratepa.

Bundagi *arna*, *shoʻr* va *saqa*, *qalʼa* komponentlari indikatorning belgisi sifatida qoʻllangan. Aslida ular Yangiarna, Yakkatosh kabi toponimlarda indikator sifatida qoʻllanadi. Bunday qoʻllanish koʻrinishdan soʻzning semantik doirasi bilan ham aloqadordir. Koʻp maʼnoli soʻzlarning sememalari turli hodisalarni nomlashi mumkin. Bunday holatda yangi soʻz vujudga keladi. Yuqoridagi misolda *qora* soʻzi rang ifodalagan, *Qorajiq* toponimida – «tepa» maʼnosini bildirgan. Bu oʻrinda ham ular omonim xususiyatiga ega emas. Tepa maʼnosi rang asosida vujudga kelgan. *Tosh* soʻzining ham ruscha kamen maʼnosi bilan togʻ maʼnolari bir-biri bilan semantik bogʻliqdir. Indikatorlarning juft holda qoʻllanishning ikkinchi sababi nom sifatida qoʻllanayotgan indikatorlarning biri shu erdagi aholi tilida oʻz maʼnosini yoʻqotgan yoki uning semantik funksiyasining oʻzgarganligidir. Masalan, Katovul, Katqalʼa yoki Rovotqishloq toponimlarini olaylik. **Kat** «qishloq» maʼnosiga ega boʻlgan indikatordir. U koʻplab toponimlar yasashda ishtirok etgan. Ammo keyingi davrda Xorazm aholisi tilida **kat** soʻzi indikator emas, maʼlum shaharning nomi boʻlib qolgan.

Kishilar bu soʻzni toponim sifatida biladilar. Shuning uchun ham uning tarkibiga ikkinchi marta qishloq soʻzini qoʻshib ishlata boshlagan

Ravotqishloq toponimi ham xuddi shunday. Hozir xorazmliklar ushbu soʻzning maʼnosini butunlay unutganlar. Shu sababli ham indikator konkret obyekt bilan bogʻlanadi va toponimga aylanadi. Shunday ekan, toponimning indikatorga aylanishi, ayni vaqtda indikatorning toponimga aylanishi shu leksik elementlarning maʼno xususiyati bilan va shu hududdagi kishilar tili leksikasidan qoʻllanish koʻlamiga bogʻliqdir. Shunday qilib, indikatorlar toponimik sistemada muhim oʻrin tutadi. Ular toponimlar bilan genetik bogʻliq. Indikatorlar konkret obyekt bilan bogʻlansa toponimga aylanadi. Demak, toponimlarning semantik koʻlami kengaysa ular indikator vazifasida qoʻllanadi.

6-mavzu:

Oʻrin bildiruvchi indikatorlar²⁰

Ular *joy, makon, oʻrin* maʼnosini ifodalovchi terminlardir. Bu tipdagi indikatorlar oʻrin maʼnosini ikki usulda ifodalaydi.

a) obyektning turini koʻrsatish orqali: *kät, qala, ravat, avul, avliya, koʻchä, oram, qyishlaq, mächyt, qavym, bazar, көрыр, ой, tam* va hokazo.

b) jamlik, koʻplik orqali: *jäm, topar, top, bav (bagʻ)* kabi.

Bu indikatorlarning koʻpchiligi Markaziy Osiyo va Qozogʻiston hududida shuningdek, boshqa turkiy xalqlar toponimiyasida mavjud. Ammo ular maʼno ottenkalariga koʻra bir-biridan farqlanuvchi holatlarga ham egadir.

Qala. Xorazmda *Asqala, Bayqala, Vaxymqala, Dävqala, Ellikqala, Yambashqala, Kөнäqala* kabi oʻnlab toponimlar tarkibida uchraydi.

²⁰ Ушбу матн Ўткир Ражабовнинг “Хоразм топонимияси индикаторларининг лисоний таҳлили” номли филол.фанл.номз. диссертациясидан олинди.

A.Z.Rozenfeld **qala** soʻzining geografik nomlarda uchrash chegarasi juda kengligi, Yaqin va Oʻrta Sharqdan to Pireney yarim orollarigacha tarqalganligini aytgan edi²¹.

Haqiqatan ham **qala** soʻzi Eron va turkiy tillar toponimiyasida juda keng tarqalgandir.

Qala soʻzi hozirgi kunda shahar, oʻralgan joy, qasr (rus, krepost ukpreplennye mesto, zamok, gorod) maʼnolariga ega.

Eron tillarida atrofi oʻralgan, tepalikdagi joyga (ukreplennye poselenie na xolme) qala deyilgan. Baʼzan oddiy tepalik ham qala deyilavergan²². Arab va turk tillarida qala tepalikdagi joy, qoʻrgʻon (rus. krepost na xolme, krepost, zamok) maʼnolariga ega. Qirgʻiz tilida **qala** oldin qishloq maʼnosiga ega boʻlgan, keyinchalik esa shaharlar shu nom bilan atala boshlagan.

Oʻzbek tilida ham qalʼa soʻzi bir vaqtlar shahar yoki bozor bilan bogʻliq boʻlgan. Baʼzi rus shaharlaridan mol keltirib sotuvchi savdogarlar, *qalachilar*, *qalachi* boylar deyilgan:

Qalʼadan qalampir yuklar *qalaʼchi*,
Har xil isli boʻlar togʻning ogʻachi.

(Xorazm xalq qoʻshiqlaridan)

Xorazmda devor bilan oʻralgan, xalqni himoya qilingan joyni **qala** deyilgan. Demak, **qala** soʻzi shahar, qishloq shuningdek, umuman yashash joyi maʼnolariga ega.

Kät. Bu indikator ham oʻzining qoʻllanish arealiga koʻra juda katta geografiyaga ega. E.M.Murzaev **Kät** termini bilan ishlatiladigan

²¹ Розенфельд А.З. Qala-тип укрепленного Иранского населения // СЭ. - 1951. 1 .

²² Савина В.И. О типах с лавообразования топонимов Ирана //Топономика Востока. - М., 1964. - С.162

toponimlar Hindiston, Pokiston, Afg'oniston, Eron, O'rta Osiyoda nihoyatda ko'pligini qayd qilgan edi ²³.

Bu terminning ma'nosi va etimologiyasi tadqiqotchilar tomonidan atroflicha o'rganilgan²⁴. Shu sababli ham bu haqda yana to'xtalib o'tirish ortiqcha takror bo'lur edi. Terminning juda ko'p xalqlar tilida mavjudligi va ular bir-biriga yaqin ma'noda qo'llanilishi uning juda qadimiyligidan darak beradi. Uning ma'nolariga e'tibor bering:

Avestoda kata, pogreb, sklep; fors. kada, kad, «rus» dom; kand; qadimgi hind, kantha, «shahar devori»; uyg'ur. kant «shahar poselok»; so'g'd. kad; kand «shahar»; yag'nob. kant «uy» va h.k.

Hind-evropa tillaridan tashqari fin-ugor tillarida va turkiy tillar toponimiyasida ham bu indikator ancha faoldir. Xorazmda bu termin hozir faol qo'llanmaydi. Ammo nomlar tarkibida «shahar» ma'nosi saqlangan. Xorazm tarixiy jo'g'rofiyasida qadimgi shahar nomi sifatida uchraydi.

Hozirgi aholi tilida bu indikatorlarning ma'nosi deyarlik unutilgan. Aftidan bu termin Xorazmning qadimgi aholisi tilida ancha keng qo'llanilgan, keyinchalik turkiy qabilalar tomonidan kam ishlatilgan. Ular bu termini toponim sifatida qabul qilgan bo'lishi kerak. Shuning uchun ham hozir *Kätqala*, *Kätavul* kabi nomlar mavjud.

Kelib chiqishi va semantik xususiyatiga ko'ra Xorazmdagi tom, uy terminlari kat indikatoriga o'xshaydi. Yuqorida kuzatganimizdek, **kät** so'zi «uy, yashash joyi» ma'nosi asosida vujudga kelgan. Tom, uy so'zlari ham «xona, dom» kabi ma'nolarga ega. U hozirgi paytda

²³ Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. - С.119.

²⁴ Абаев В.И. Этимологические заметки. Труды Института языкознания АН СССР. Т.6. - М., 1956; Мурзаев Э.М. Этюды по топонимике Средней и Центральной Азии // ВГ. 8. - М., 1948 и др.

toponimik indikator sifatida qo‘llaniladi. Quyidagi nomlar shu indikator yordamida yasalgan: Beshtom, Yakkatom, Beshuy, Beshuyli, Ayritom.

Avul. Xorazm toponimiyasida asosan uning shimoliy qismida juda faol indikatorlardan biridir. Ovul so‘zi turkiy va mo‘g‘ul tillarida juda keng tarqalgan: qozoq: aul, ail-Bayanaul, Adayaul kabi. Qoraqalpoq. Ao‘ul//ao‘yl: Ozbegao‘yl, Naymanaao‘yl kabi.

Qirg‘iz tilida ауыл-qora uy (rus. yurta) ma‘nosiga ega. Shuningdek qozoq, qoraqalpoq tillarida ham bu so‘zning ko‘chib yurish vaqtida (ma‘lum muddatga yoki doimiy) to‘xtash, yashash joyi ma‘nolari mavjud. Mo‘g‘ul tilida ail so‘zi, «o‘tov, o‘tovlar» ma‘nosidadir²⁵.

Demak, ovul indikatorini dastlab o‘tov ma‘nosini anglatgan. Xorazmda «qishloq» degan ma‘noni bildiradi. Ovul indikatoriga sinonim sifatida **o‘ba** termini ham qo‘llaniladi. Oba//ova//ovba «ovul, qishloq» ma‘nosiga ega.²⁶ Turk ova, «dolina, ravnina» ma‘nosida qo‘llaniladi. (TRS, 695). Turkman: oba, qishloq aholi punkti (Tds, 476). Eski o‘zbek tilida ham ovva «qishloq» demakdir. (Rdl.1.173).

Ravat. Bu indikator Xorazmda **Qызыlravat, Sharavat** kabi toponimlar tarkibida uchraydi. Hozirgi aholi tilida ma‘nosi unutilgan. V.V.Bartold terminning arab tilidan o‘tganini, dastlab bu so‘z shahar tashqarisidagi qism (o‘rin)ini bildirganini yozadi. Uning qayd etishicha, bu terminning rabot formasi dastlab otlarni bog‘laydigan joy (ya‘ni og‘il), so‘ngra chegara posti, qo‘rg‘on, qazarma, qal‘a kabi ma‘nolarni ifodalagan²⁷.

Xorazm toponimiyasida ham xuddi shu ma‘noda qo‘rg‘on, bekat

²⁵ Мурзаевы Э. и Л. Словарь местных географических терминов. - М., 1959. - С.30.

²⁶ Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Б. 64.

²⁷ Бартольд В.В. Сочинения. Т. II. Ч.1. - М., 1963. - С.121-123.

ma'nolarida qo'llangan.

Avliya. Xorazm toponimiyasida «muqaddas joy, mozor» ma'nosida qo'llaniladi. *Qazaqavliya, Shag'alavliya, Orıysavliya, Qaravulavliya* va hokazo.

Bu indikator ko'pincha *avliyabuva* shaklida «buva» so'zi bilan qo'llaniladi. Shu sababdan bo'lsa kerak «buva» so'zi indikator funkstiyasini ham bajaradi. Ko'pincha toponimlar tarkibidan indikatorlarning o'zi tushirib qoldirilib «buva» so'zi bilan atalaveradi. Masalan: *Buva* (<*Qalandar buva*).

Kochä. Bu indikator joy nomi sifatida va suv obyektlari va daralarni nomlash uchun qo'llanilgan. Tyanshan etaklarida Oqsu okrugida *Ko'cha* shahri bor. Muzart deltasida joylashgan shahar yaqinida *Ko'chatograk* qishlog'i mavjud. Qadimgi Xitoy manbalarida Ko'cha-Guysti nomi bilan mashhur²⁸.

Hozirgi mavjud turkiy tillarning ko'pchiligida ko'cha «ulista» ma'nosiga ega. Eron tillarida ham bu so'z «poselok, ulista» ma'nolariga ega.

Xorazm toponimiyasida bu indikator shahar va qishloq ichidagi bir bo'lakni ifodalaydi. Ko'pincha «mahalla» ma'nosini anglatadi: *Zärgärkөchä, Ölyuyvg'ıchkөchä, Käptärvazkөchä, Tozakөchä, Kөnakөchä, Bäңыңыңkөchäсы, Axunkөchä* va hokazo.

Ko'cha tarixan kelib chiqishiga ko'ra so'g'd tilidagi koca – «og'iz, oraliq» so'zi bilan aloqador bo'lsa kerak. Hozirgi davrda ko'pgina tillarda faol qo'llaniladi.

Oram. Xorazm toponimiyasida *Savunchы oram, Baqqallar*

²⁸ Мурзаев Э.М. Очерки топонимики... -С.292.

oram, *Xärrätläroram*, *Qyrg‘yzyaporam*, *Qaravuloram* kabi o‘nlab nomlarda uchraydi. Janubiy Xorazm shevalarida faol qo‘llanilib, «mahalla, ko‘cha, kvartal» ma‘nolarini anglatadi. Bu termin boshqa o‘zbek shevalarida ham mavjud. Jumladan, Sayramda «ko‘cha» (ulista) ma‘nosini bildiradi (O‘ShL, 202). Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalarida *oram* ikki xil variantga ega bo‘lib «ko‘cha, el, elat, qavm» ma‘nolarini anglatadi²⁹. Eski o‘zbek tilida o‘ram «ko‘cha», «kvartal» (RDL I, 1052).

«Tafsir». *oram*, o‘ram, «selenie», «ulista» (330). Qadimgi turkiy tillarda *Oram* «ulista» (DTS, 370)

Qyishlaq. *O‘risqyishlaq*, *Tömänqyishlaq*, *Mädyrqyishlaq*, *Ög‘yzqyishlaq* kabi nomlarda uchraydi. Bu termin Xorazm shevalari uchun xarakterli emas. Uning toponimlar tarkibida uchrashi shevalar integrastiyasi bilan bog‘liq. Hozirgi davrda fan – texnika, radio, televizor va matbuotning naqadar rivojlanganligi xalq shevalarining adabiy tilga yaqinlashuvi ancha tezlashdi. Shubhasiz, bu toponimlarda ham o‘z aksini ko‘rsatmoqda. Xorazm toponimiyasida neotoponimlar ma‘lum bir qatlamni tashkil qiladi. Qishloq so‘zining Xorazm shevalariga kirishi ham shu jarayonning natijasidir.

Mächytqavym. Ushbu terminning toponimik indikatorga aylanishi feodal Xeva xonligining ma‘muriy bo‘linishi bilan bog‘liqdir. Ma‘lumki, bu arabcha termin musulmonlar jamoa bo‘lib namoz o‘qiydigan joy, ibodatxona ma‘nosini anglatadi (O‘zSE,7,24). Ba‘zi masjidlar diniy targ‘ibot markazi vazifasini o‘tagan. Masalan, juma va hayit namozi kunlari imom-hatiblar xutba o‘qib, turli diniy masalalar

²⁹ Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – 142 б.

bo'yicha, targ'ibot yuritganlar.

Xeva xonligida masjidlar bundan tashqari boshqarish ishini ham bajargan. Muhammad Rahimxon davrida mamlakatda o'tkazilgan ma'muriy- territorial boshqarma islohoti natijasida xonlik viloyat va machitlarga bo'lingan. Xeva xonligida 1183 machit (yoki machit qavm) mavjud bo'lgan. Xeva shahrida 4029 (1924 yilgi tekshirish vaqtida) xonadon bo'lib 55 machitga bo'lingan³⁰.

Bu masjidlar ko'pincha shu erdagi katta er egasi tomonidan boshqarilgan va uning nomi bilan yuritilgan. Ba'zi hollarda shu masjidga birlashgan kishilarning urug'i nomi bilan atalgan :

Babachärm mächыты, Jumakeldы mächыты, Aqmächыт, Xudayar nauыb mächыты, Orazлы mächыты, Qыrquар mächыты, Qulanлы mächыты, Häsän Murad atalyq mächыты³¹ va hokazo. Hozirgi paytda bu termin «qishloq, mahalla» ma'nosini anglatadigan indikatorga aylangan. Kishilar tasavvurida uning davlat ma'muriy bo'linishi ma'nosi unutilgan.

Bu indikatorlar O'zbekistonning boshqa viloyatlarida ham nomlar tarkibida qo'llaniladi. Masalan, Marg'ilonda ***Chekka masjid, Jarmasjid, Balandmasjid, Sirli masjid*** toponimlari qayd etilgan³².

Көрыг. *Qo'shkөрыг, Matakөрыг, Chatкөрыг, Kyyökkөрыг, Gyllänkөрыг, Tazakөрыг, Kөнäkөрыг, Shavatкөрыг* kabi nomlar tarkibida uchraydi. ***Көрыг*** indikatorini ko'prik, «most» ma'nolaridan tashqari «chegara», ma'nosini ham anglatadi. Ma'lum bir daha yoki

³⁰ Йўлдошев М.Й. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Б. 239-271.

³¹ Хива XIX аср давлат ҳужжатлари. II. – Т., 1960. – Б.398-400.

³² Латипов Ж. Марғилон топонимиясида индикаторлар// «Ўзбек тили лексикологияси ва грамматикаси масалалари» тўплами. – Б. 561, 125.

mahallaning chegarasi ko‘prik bilan belgilangan. Ma‘lum davrda ko‘prik ham muhim differentsial belgi hisoblangan. Ayrim obyektlar ko‘prik orqali farqlangan. Demak, dastlab bu nomlar Qo‘shko‘priqli qishloq, Tozako‘priqli qishloq shaklida bo‘lgan. Keyinchalik bu so‘z funkstional indikatorga aylangan va obyektни ham, uning belgisini ham ifodalagan.

Hozirgi kunda bu so‘z joy, makon ma‘nosini bildiruvchi indikatorga aylangan. Xorazmda *көпүр* indikatorining fors-tojik tilidagi pul formasi ham uchraydi:

Payapul (toj.poy «oyoq» + «pul» - ko‘prik ya’ni , oyoq ko‘prik).

O‘zbek onomastikasida hozirga qadar bajarilgan ishlarda ko‘pir // ko‘prik indikatorі goh toponimik, goh gidronimik indikator sifatida tavsiflanmoqda. Keyingi ma‘noda tavsiflanganda bu so‘zning suv bilan aloqadorligi, suv ustiga quriluvchi inshoot, o‘tish yo‘li ekani ko‘zda tutiladi. Ba’zi tadqiqlarda ko‘priklar nomi gidronimning ko‘rinishlaridan biri sifatida tavsiflangan. Chunonchi , A.Aslonov o‘z nomzodlik dissertastiyasida ko‘priklar nomini gidronimning alohida guruhi sifatida ajratadi va o‘zi tadqiq qilgan hududdan 20 dan ortiq ko‘prik nomini yozib olganini qayd qilgan. Ular tarkibida *ko‘prik* indikatorі ishtirok etgan va nomning gidronim sifatida shakllanishiga asos bo‘lgan: Navro‘zpolvon ko‘prigi, Sultonobod ko‘prigi, Nozik kampir ko‘prigi, Chandir ko‘prigi, Qumbosti ko‘prigi, Xo‘jalar ko‘prigi³³ va b.

Endi obyektни ya’ni makon va o‘rin ma‘nosini jamlik orqali ifodalovchi indikatorlarga to‘xtalamiz.

³³ Аслонов А. Шофиркон тумани микротопонимиясининг лингвистик таҳлили: Филол. фанлари номзоди дис. ... автореф. – Т., 2005. – Б. 14.

Jäm. Xorazmda *Mollajäm, Xallyjäm, Kasıptıñjämy, Zärgärjäm* kabi nomlar shu indikator yordamida yasalgan.

Misollardan ko‘rinadiki, *jäm* «ovul, qishloq, aholi punkti» ma‘nolarini bildiradi.

Mazkur so‘zning etimologiyasi haqida turli fikrlar mavjud.

Ko‘pchilik tadqiqotchilar jam//jom// yam bir xil mazmundagi so‘zlar bo‘lib, fonetik o‘zgarishga uchragan dialektal formalar deb ko‘rsatadilar va uni mo‘g‘ulcha yom «pochta stanstiyasi bekat» so‘zi bilan bog‘laydilar³⁴.

Toponimist T.Nafasov Qashqadaryodagi Yomchi, Jambuzqutchi, Jombuloq kabi nomlar ushbu indikator yordamida vujudga kelganini aytadi³⁵.

Darhaqiqat, B.Ya.Vladimirov qadimgi mo‘g‘ul yozma yodgorliklarida, shuningdek, hozirgi bir necha mo‘g‘ul tillarida *jam∞ zam* so‘zlari «yo‘l» (rus.put, doroga) ma‘nosini bildirganini mo‘g‘ul imperiyasi (Chingizxon) davrida jam so‘zi «pochta bekati» ma‘nosiga ega ekanligini qayd etadi.³⁶

Qator turkiy tillarda, shuningdek, o‘zbek tilining ko‘plab (Samarqand, Buxoro, Xorazm) shevalarida jam//*jäm* hamda yom, jom nomi bilan ataluvchi toponimlar mavjud.

V.A.Nikonov ko‘rsatishicha, yom//yam tatar tilida qishloq, ovul (rus. selenie) ma‘nolariga ega bo‘lib, u so‘z orqali ko‘plab toponimlar

³⁴ Караев С. Опыт изучения топонимии Узбекистана: Автореф. дис. ... канд. Филол. наук. - Т., 1969. - С.13.

³⁵ Нафасов Т. Топонимы Кашкадарынской области: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Т., 1968. - С. 9

³⁶ Владимирова Б.Я. Заметки к древнетюркским и старомонгольским текстам. Доклады АН СССР. – 1928. - Вып. 16. – С. 291.

yasalgan³⁷.

V.A.Nikonov aytganidek, dunyoda nomlar million-million, lekin ularni ifodalovchi tovushlar atigi o‘ttiz besh-qirqta, xolos. Shunday ekan so‘zlarning fonetik jihatdan o‘xshashliklariga asoslanib, ma’lum bir tildan uning boshqa bir komponentlarini izlash orqali so‘zlar etimologiyasini to‘liq aniqlash mumkin emas.

Haqiqatan ham yam (yom) va **jäm** so‘zlari fonetik jihatdan o‘xshash. So‘z boshida y//j yoki j//y hodisasi izoh talab qilmaydi. Lekin, mo‘g‘ulcha jam o‘zbek tilidagi **jäm** so‘zlari semantik jihatdan farq qiladi.

Mo‘g‘ul tilidagi jam so‘zining pochta bekati ma’nosini ifodalashi semantik jihatdan yo‘l so‘zi bilan bevosita aloqadordir. Rus tilidagi yamshchik so‘zi ham yo‘lovchi, pochta, yuk tashuvchi so‘ziga aloqador³⁸.

Turkiy tillardagi jam (arab. جمع) - jamlamoq, jamlanmoq ma’nosidadir. Shunday ekan, Qashqadaryodagi Jambuzqutchi toponimini – jam - «qishloq» buzqut – urug‘ nomi, – chi qo‘shimcha, ya’ni «buzqut urug‘i jami, jamoasi buzqut urug‘i qishlog‘i» deb izohlash kerak.

Demak, mo‘g‘ul tilidagi yom so‘zi turkiy tillardagi **jäms** o‘zidan farq qiladi. Xorazmdagi **jäm** indikator ham «jamlash, to‘plash» ma’nosi orqali vujudga kelgan bo‘lib, hozir «qishloq, ovul, mahalla» ma’nolarini ifodalaydi.

O.Begimov toponimlar tarkibidagi Jam // Jom so‘zi va uning fonetik variantlarini gidronimik ma’noda talqin qilgan: «Janubiy O‘zbekiston

³⁷ Никонов В.А. Краткий топонимический словарь. - М., 1966. – С.492.

³⁸ Ўша асар. – Б.491.

toponimlari tarkibida jon//jan//jom formantlari ham ko‘p uchraydi. Bu formantlar asli so‘g‘dcha *Jan* so‘zidan hosil bo‘lgan. U «kanal, buloq, suv manbasi» ma‘nolariga ega. Uning fonetik varianti bo‘lmish *jon* formanti orqali So‘g‘d va Ustrushshanda suvliklar nomlari yasalgan: Buzmajon, Sanjon, Xonjon, Burjon, Ro‘yjon variantidan o‘zbekcha toponimlar ham yasalgan: Jombuloq, Jombuch, Jombuzsoy, Jomqavoq»³⁹.

Top, topar. Mollatory, Chavdyrtory, Kösätory, Häkimtopar, Mollatopar, Maqsımtopar va hokazo toponimlar tarkibida uchraydi. Bu indikator Xorazm shevalarida ikki xil variantda qo‘llaniladi.

Janubda to‘p (yoki to‘pi), Shimolda esa ko‘proq to‘por shaklida ishlatiladi.

O‘zbek shevalarida to‘pori so‘zi mavjud bo‘lib, «hamma bilan til topa oladigan, sodda kishi» ma‘nosiga ega (O‘shl. 260). Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalarida topar «to‘da, guruh» demakdir⁴⁰.

Qadimgi yozma yodgorliklardan biri «Attuhfa»da to‘p «poydevor, to‘p» to‘pa «teg» kabi ma‘nolarga ega (266). A.Ishaev Xo‘jayli tumanida topsa so‘zining «ostona, bo‘sag‘a» ma‘nosi mavjudligini qayd etadi⁴¹.

O‘zbek adabiy tilida ham to‘p «to‘da» ma‘nosiga ega. Qiyos qiling: To‘pidan ayrilganni bo‘ri er (O‘zil. 250).

To‘por, to‘p indikatorlari toponimlar tarkibida va yolg‘iz holda ham uchraydi. J.Latipov Marg‘ilonda to‘pi indikatorini bilan qo‘llaniladigan

³⁹ Бегимов О. Жанубий Ўзбекистон топонимларининг ўзлашган қатлами: Филол. фанлари номзоди ... дис. автореф. – Т., 1999. – Б13-14.

⁴⁰ Ишаев А. Қорақолпоғистондаги ўзбек шевалари. – Б. 160.

⁴¹ Ишаев А. Кўрсатилган асар. – Б. 160.

Boyto‘pi, Bekto‘pi, Eshonto‘pi, Shayxto‘pi kabi nomlarning mavjudligini yozadi⁴².

Qozog‘istonda To‘por, To‘porquduq kabi nomlar mavjud. E.Koychuboev To‘por etnik nom bo‘lsa kerak, degan fikrni bildiradi.

Bu so‘z ma‘lum bir urug‘ning nomi emas, balki etnik guruhni ifodalovchi termin bo‘lishi ishonchliroqdir. Har holda so‘zning ma‘nosi shunga yaqin. Qiyos qiling: Mang‘it urug‘i, Mang‘it to‘pori, Mang‘it to‘pi kabi.

Xorazmda hozirgi davrda «guruh» ma‘nosidan tashqari to‘por, to‘p «qishloq, mahalla, ko‘cha» kabi ma‘nolarni ifodalaydi.

Gyllänbag‘ı, Bag‘alan, Qulanbag‘ kabi nomlar tarkibidagi bog‘ so‘zi ham semantik jihatdan to‘por, to‘p, terminiga yaqin. U ham «to‘p, bog‘lam» ma‘nosini anglatgan. Shu sababli ham qadimda «to‘qson ikki bovli o‘zbek» deb atalgan. Bu bilan o‘zbeklarning 92 bov (bog‘)iga, bo‘lagiga ishora qilinadi.

7-mavzu:

Janubiy Qoraqalpog‘iston oykonimlari⁴³

O‘rganilayotgan hududga oid oykonimlarning topogrammatik nuqtayi nazaridan bir turi bo‘lgan sodda oykonimlardan bir qanchasining etimologik tahlili to‘g‘risida quyida to‘xtalindi.

Qo‘ng‘irot etnooykonimining etimologiyasi haqida turli qarashlar mavjud: 1. Tadqiqotimizning boshida ham alohida ta‘kidlangan ediki, tildagi so‘zlar eng oldin ikki guruhga bo‘linadi: 1) appellyativ so‘zlar

⁴² Латипов Ж. Кўрсатилган асар. – Б.125

⁴³ Ушбу матн Икром Холмуратовнинг “Жанубий Қорақалпоғистон ойконимлари ва уларнинг луғавий асосларининг лисоний тадқиқи” номли 10.00.01 – ўзбек тили ихтисослигидан филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертацияси (Бухоро, 2020)дан олинди.

nutqda faol qo‘llanadigan odatdagi so‘zlar hisoblanadi; 2) onomastik leksika sathiga xos nomlash uchun tanlangan so‘zlar. Ushbu so‘zlarning manbai ham apellyativ so‘zlar, ammo ularning apellyativ so‘zlardan farqi ob’ektlarni nomlash uchun qo‘llanishida hamda nomlilik, aniqrog‘i, toponimik ma’nomlarni anglatishidir. Shunga ko‘ra qo‘ng‘irot so‘zining qo‘ng‘ir ot shakli apellyativ leksikaga xos shakli bo‘lsa. Bu so‘zning qo‘ng‘ir+at shaklida yasalishi va undan qo‘ng‘irot holatidagi yangi yasalmaning nomlanish jarayonida nom sifatida qo‘llanishi esa onomastik leksikaga xos xususiyatlardan biri. Xullas, apellyativ leksika sathidagi qo‘ng‘ir ot so‘zi bilan onomastik leksika sathidagi qo‘ng‘irot nomi (u toponim, etnonim, oykonim kabilarning nomi bo‘lishi mumkin.

2. Xalqona etimologiya bo‘yicha ba’zilar uni qo‘ng‘ir rangli otga bog‘lashadi. Xalq vakillari esa kul rang holatidagi rang nomi bo‘lgan qo‘ng‘ir leksemasiga daxldor deb hisoblashgan. Agar Boysun-Qo‘ng‘irot atrofidagi erning tuzilishiga e’tibor qilinsa ham kul ranglilik holati bor. Qo‘ng‘irotlar kiyinishida ham o‘zbeklardan farqli tarzda keyingilari kabi so‘zdashuvda ham palatal singarmonizm xususiyatlarini saqlab gapirishadi.

3. Ammo ba’zi tadqiqotchilar fikricha⁴⁴, qo‘ng‘irot so‘zi katta o‘zbek qabilalardan birining nomi bo‘lib, qadimiy turkiy so‘z bo‘lib, u mo‘g‘ulcha *xun kerey (qora qarg‘a)* so‘ziga aloqadordir;- *vu xun + kerey+t /xunkeyt/ ko‘ng‘irot/ qo‘ng‘irot* evolyustiyasini boshidan kechirgan. Demak, qo‘ng‘irot asli etnonimlardan biri bo‘lib, qarg‘a ma’nosidagi *xun kerey* so‘zining fonetik o‘zgarishidan kelib chiqqan.

4. Tarixchi olim Jalilov Omonbek Husayinbek o‘g‘lining qayd

⁴⁴ Караев С.К. Топонимия Узбекистана с топонимическим словарем. -Тошкент, Турон zamin ziyo, 2015. -с. 355-356.

etishicha, *Qo'g'irot* - turk mo'g'ul qabila-urug' nomi. Qo'ng'irotlar o'zbek, no'g'oy, qoraqalpoq va mo'g'ul xalqlarining etnik tarkibiga kirgan. Qoraqalpoq *qo'ng'irotlari* katta etnik guruh bo'lib, ular *segiz tamg'ali shulluk* va *jeti tamg'ali jovung'urdan* iborat ikkiga bo'lingan. Birinchisiga *qiyot, ochomoyli, kuldovli, qo'shtamg'ali, bolg'ali, xondaqli, qoramuyun* qabilalari kirgan.

Jovung'urga terstamg'ali, boqonli, tiyoqli, erg'oqli, buymoqli, qozoqyoqli uyg'urlardan iborat etti urug' kirgan⁴⁵.

Toponim to shu holatga kelguncha ancha fonetik va morfologik o'zgarishlarga uchragan. So'z tarkibidagi *-t // -at* qo'shimchasi ko'plikni bildirgan. Uning o'zidan oldingi so'zga qo'shilishi natijasida qo'ng'irot shaklidagi onomastik leksika birligi shakllangan: *qo'ng'ir+at > qo'ng'irat > qo'ng'irot > Qo'ng'irot*. Bunda fonetik o'zgarishlar tufayli *-at* formatidagi *a* unilisi *o* unlisiga o'zgargan: *a > o*. Xullas, *qo'ng'irot* so'zi oddiy so'zlikdan chiqib, onomastik leksika sathiga ko'chgan holda avval etnonim nomi, keyinroq esa toponimga aylanganda qo'shimchalik xususiyatini yo'qotib, topoformant holatiga kelib qolgan va ko'plik, jamlik, to'da ma'nolarini anglatadi.

Kerayt – qishloq nomi. Bu nomning kelib chiqishi haqida bir qancha fikrlar bor:

1. Turkiy xalqlar, xususan, o'zbek, qozoq, qirg'iz xalqlari tarkibiga kirgan qabila va urug'lardan birining nomi⁴⁶. Ular X-XII asrlarda Mo'g'ulistondagi Onon va Kerulen daryolarining yuqori oqimida

⁴⁵ Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аёзий. Тарихи Рашидий.-Тошкент, О'zbekiston, 2011. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, изоҳлар ва кўрсатмалар муаллифи тарих фанлари номзоди Жалилов Омонбек Хусайинбек ўғли.126а-, 611-бет.

⁴⁶ Қораев С. Ўзбекистон вилояти топонимлари.- Тошкент, О'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. 193-бет.

yashashgan. Keraytlarning bir qismi XIII asrda Chingizxon qo‘shinlari tarkibida Ozarbayjonning janubiy tumanlariga kelib o‘rnashishgan. Keraytlarning katta bir qismi XII-XIY asrlarda o‘zbek xalqining tarkibiga singib ketgan.

2. Nomning birinchi qismi ko‘p tadqiqotchilarning fikricha, qora degan ma‘noni bildiradi. Nomning ikkinchi qismi har xil - odam, qo‘y, qarg‘a ma‘nolarini anglatadi, deb taxmin qilinadi⁴⁷. Mazkur toponim o‘zbek tilidagi quyidagi ko‘rinishda shakllangan: *kerayt* > *kerayit* > *keyroit* > *kengiroit* > *keng‘iroit* > *qo‘ng‘irot* > **Qo‘ng‘irot**. Ya‘ni mo‘g‘ul tiliga xos kerayit so‘zi o‘zbek adabiy tiliga, uning shevalariga o‘zlashib, turli fonetik o‘zgarishlarga uchrab, kerayit so‘zi qo‘ng‘irot so‘ziga aylanib qolgan. Bu so‘z ifodalayotgan kul rang ot ma‘nosi esa shu so‘zning o‘zbek tiliga o‘zlashgandan keyingi ma‘no taraqqiyotida shakllangan ma‘no nozikligidir. Demak, mazkur toponimning qo‘shma shakli (Qo‘ng‘irot) to‘g‘ri morfologik tahlil emas. Chunki ushbu toponimning topoasosi mo‘g‘ulcha kerayt so‘zidan til(lar)dagi turli fonetik hodisalar ta‘sirida o‘zgarishlarga uchragani aniq.

Kerayit qadimiy oltoy tillariga mansub so‘z bo‘lib, u keret - qarg‘a ma‘nosini anglatgan. So‘z oxiridagi -t ko‘plik, jamlik ma‘nosini bildiradi. Mo‘g‘ul tilida ham ushbu so‘z xeree (n) -qarg‘a degan ma‘noni anglatadi.

Kerayit - O‘zbekistondagi bir necha qishloqning nomi. *Kerayit* o‘zbek millati tarkibiga kirgan urug‘ nomi (lug‘aviy ma‘nosi - qora qo‘y yoki qora odam, ba‘zi fikrlarga ko‘ra - qarg‘a)⁴⁸.

⁴⁷ Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати.-Тошкент, Ўқитувчи, 1977. 81-82-б.

⁴⁸ Қораев С. Географик номлар маъносини биласизми? -Тошкент, Ўзбекистон, 1970. 65-бет.

Kerayt soʻzining qora uy degan maʼnosi bor. Rashididdin esa qora odam deb talqin qilgani ham maʼlum. Ammo kerayit etnonimiga totem boʻlgan qargʻa nomi bilan bogʻlab izohlash kengroq tarqalgan. Demak, oykonimning etimoni qadimiy oltoy tillariga mansub *keret*, yaʼni qargʻa maʼnosidagi soʻz.

Qishloq - nomi ikki qismdan iboratday tuyuladi, biroq bir butun soʻz. U tarixan ikkita maʼnoli boʻlakdan tashkil topgan: qishloq (qish+loq), logʻ-loq soʻzi qadimda qishlaydigan joy maʼnosini anglatgan. Keyinchalik bu soʻzning ikkinchi qismi tarixiy taraqqiyotda kichraytirish affiksi -loq (boʻtaloq) bilan omonimik holatga tushib qolgach, u oʻrin-joy maʼnosini anglatuvchi qoʻshimcha qatoriga oʻtgan. –loq qishloq soʻzida yasovchi qoʻshimcha vazifasini bajaradi, chunki qishloq soʻzi apellyativ leksika majmuida qoʻllanadi. Ammo onomastik leksika sathidagi Qishloq nomi esa bir butun soʻz boʻlib, topoobʻektning nomi sanaladi. Ushbu nomdagi –loq apellyativ leksikasidagi –loq bilan shaklan oʻxshash boʻlib qolgan, biroq oʻzidan oldingi qish soʻzidan ajratib boʻlmaydigan holga kelgani uchun nom sanaladi. Uning shunday affikslar qatoriga oʻtishi forscha joy soʻzining oʻzbek tiliga kirib kelishi bilan bogʻliq boʻlishi ham mumkin.

–loq ning XVII-XVIII asrlarda makon yasovchi affiks ekanligi Fatx Alixonning «Kitobi lugʻati atrokiya» asarida koʻrsatib oʻtilgan. Yuqoridagilardan koʻrinib turibdiki, apellyativ leksikadagi qishloq nutqda turli qoʻshimchalarni qabul qilgan holda faol qoʻllanadigan soʻz. Joy nomi vazifasini bajaradigan Qishloq esa alohida nom sanaladi. Demak, qishloq soʻzi qadimda aholining qishlaydigan joy maʼnosini anglatgan. Uning etimoni qishda yashaydigan joy maʼnosidagi qishlogʻ

// qishloq soʻzi.

Qarmish - qishloq. Andijon v, Qoʻrgʻontepa tumani, Xorazm v. Yangiariq tumani, Qoraqalpogʻiston Respublikasining Amudaryo tumani, Qirgʻizlarning adigine va doʻloʻs qabilalari, qirgʻiz qipchoqlar, oʻzbeklarning laqay qabilasi, boshqirdlarning yurmati va qipchoq qabilalari tarkibida qarmish urugʻi (etnonim) qayd qilingan.

Qatagʻon - qishloq (Buxoro v. Navoiy tumani, Namangan v. Namangan tumani, Samanqand v. Ishtixon, Payariq, Urgut, Xatarchi tumanlari, Qashqadaryo v. Shahrisabz, Yakkabogʻ tumanlari, Xorazm v. Shovot tumani). - Samarqand viloyatining Ishtixon tumanida Ravotqatagʻon degan aholi punkti bor. Qatagʻan oʻzbeklar tarkibiga kirgan yirik qabilalardan biri. Qatagʻonlarning asosiy qismi Afgʻonistonning Qatagʻon viloyatida yashaydi. Oʻrta Osiyoda qatagʻonlar Tojistonda (Quyi Vaxsh, Yaxsuv, vodiylari, Panj daryosining oʻng sohili, Qoʻrgʻontepa shahridan) va qisman Janubiy Oʻzbekistonda qayd qilingan.

Qaraman - qishloq (Qoraqalpogʻiston Respublikasining Amudaryo tumani, Xorazm v. Xazorasp, Qoʻshkoʻpir tumanlari, Qaramanqalʼa Qoʻshkoʻpir tumani) nomi. Ushbu oykonimning shakllanishi haqida quyidagi fikrlar bor:

1. Qahramon soʻzi botir, qahramon va kishi ismi maʼnolarini ifodalagan. Ammo sheva vakillari talaffuzida shu soʻzdagi h undoshi tushib qolgan va qaraman shaklida aytilgan va yozilgan.

2. Qaraman va Oqman - turkman qabilalarining nomi. Qaramanlar oʻzbek xalqi tarkibiga ham kirgan qabila va urugʻlardan birining nomi.

3. Shu bilan birga qayragʻoch daraxtining bir turini Xorazmda

qaraman (Qora eman) deyishadi.

Qaraman toponimi to'g'risida yuqoridagi fikrlar asosida quyidagi umumlashmaga kelish o'rinli: mazkur toponimning kelib chiqishi haqida ikkita jiddiy faraz bor:

1. Qahraman so'zi kurashda, ko'pkarida juda faol qatnashganlarga nisbatan qo'llaniladigan olqish so'zi. U talaffuzda *h* undoshining tushib qolishi bilan xarakterlanadigan so'zlardan biridir: *qahraman* > *qaraman*. Shuningdek, bu so'z o'zlashgan so'z bo'lgani uchun ham o'zbeklar talaffuzida ba'zi tovushlari tushishi va o'zgarishi mumkin. Agar sheva vakillari nutqida qahraman so'zidagi *h* unloshining tushib qolishini e'tiborga olsak, Qaraman nomining qahramon so'zidan shakllanganligiga o'zbek shevalari vakillari nutqi asos bo'ladi.

2. Keyinchalik qaraman so'zi qabila va urug'lardan birining nomi (etnonim) dan shakllanganiga esa dalillar bor. Masalan, shu tarzda nomlanadigan etnonim mavjudligi tarixiy manbalarda o'z ifodasini topgan.

3. Shuningdek, qayrag'och daraxtini Xorazmda qaraman deb aytilishi ham mazkur nomning bahsli ekanligidandir.

4. Bizningcha, keltirilgan uchala faraz ham asosli day ko'rinsa-da, qaraman nomining etnonimga bog'lanishi eng ishonchli holatlardan biri. Qahramon hamda qayrag'och so'zlarining tovush tushishi natijasida o'rganilayotgan hududdagi Qaraman nomiga fonetik o'xshash bo'lishi tasodifiy o'xshashlikdir deyish o'rinli. Xullas, qaraman oykonimining etimoni qaraman etnonimi hisoblanadi.

Toz // Taz - QQR Amudaryo t., Samarqand v. Nurota, Pasdarg'om t. qishloq. Toz ilk o'rta asrlarda qipchoq urug'laridan birining nomi

bo'lgan. Etnograf K. Shoniyo'zov toz urug'i mo'g'ullar istilosidan so'ng parchalanib, boshqird, qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz va o'zbeklarning tarkibiga qo'shilib ketgan, deb hisoblaydi. Etnonimning nomi topooykonimga asos bo'lgan. Natijada, etnooykonim yuzaga kelgan: *toz* // *taz* > *toz (taz)* > **Toz (Taz)**.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, **Toz (Taz)** etnonimi **Toza** shaklidagi ikkilamchi topoindikator bilan o'xshash bo'lib qolgan. Aslida ular boshqa-boshqa so'zlar sanaladi. Chunki **Toza Amirobod** jamoa xo'jaligi, **Tozabog'**, **Toza Amirobod** (Ellikqal'a t.Tozabog' ovul kengashidagi ovul) oykonimlaridagi birinchi komponent etnonimlikdan ko'ra *yangi* so'zi ma'nosida qo'llanmoqda.

Do'rmon // Do'rmen - qishloq nomi sifatida Respublikamizning deyarli barcha viloyatlarida va Qoraqalpog'istonda uchraydi (Beruniy t. ovul, etnotoponim).

Do'rmoncha, Do'rmonlar, Oyoqdo'rmon, Yuqorido'rmon va boshqalar. Do'rmon o'zbek urug'laridan bo'lib, ma'nosi mo'g'ul tilida «to'rt» demakdir.

Qishloqlar nomining Do'rmonbahodir nomli qadimgi bahodir nomiga qo'yilgan deyilishi to'g'ri emas⁴⁹.

Do'rmon o'zbek qabilalaridan birining nomi bo'lib, ular tarqoq holda Zarafshon, Surxondaryoda, Toshkent vohasida, qisman, Xorazmda, Janubiy Tojistonning bir qancha joylarida, shuningdek, Afg'onistonning shimolida yashashganlar. Ular XVI-XVII asrlarda Dashti Qipchoqdan ko'chib kelishganlar. Ular yashagan qishloqlar **Do'rmon, Do'rmoncha** kabi nomlar bilan atalgan. Do'rmon so'zi

⁴⁹ Қораев С. Географик номлар маъносини биласизми? -Тошкент, Ўзбекистон, 1970. 46-бет.

(mo‘g‘ulcha do‘rba) «to‘rt» degan ma‘nosi bildiradi⁵⁰.

Jaloyir - O‘zbekistondagi bir qancha qishloqlarning nomi. Ohangaron havzasi hamda Xo‘jand atroflarida XIII asrdan to 1375 yilgacha jaloyir qabilasi yashagan. O‘sha yili qattiq qarshilik ko‘rsatgani uchun Temur jaloyirlarning sarkardasini qatl ettiradi va jaloyirlarni turli tomonlarga bo‘lib yuboradi.

Jo‘gi - qishloq. Samarqand viloyatining Narpoy tumanida. Qoraqalpog‘istonning Amudaryo tumanida ham Jo‘gilar deb ataluvchi qishloq bor. Uning etimologiyasi bizga hozirgacha ma‘lum emas. Biroq O‘rta Osiyo lo‘lilarining bir urug‘i jo‘gi deb ataladi. Ba‘zi lo‘lilarning guruhi mo‘ltoni deyishadi. Mo‘lton Hindistondagi (Panjob) birj oy nomi, lo‘lilar o‘sha erdan chiqqan. Mo‘lton -«mo‘ltonlik» demakdir.

Toponim jo‘gi etnonimi asosida vujudga kelgan. Jo‘gi “lo‘lilarning ayrim o‘zbek shevalaridagi nomi”. O‘rta Osiyo lo‘lilarining bir urug‘i ham jo‘gi deb ataladi⁵¹.

Nayman - o‘zbek urug‘laridan birining nomi . Lug‘aviy ma‘nosi «sakkiz» degan so‘z. O‘zbekistonda xususan Samarqand viloyati Naymon, Naymoncha, Qoranayman, Ravatnaymancha kabi qishloqlarni ko‘plab uchratish mumkin⁵².

Alili - qishloq. Amudaryo tumanida joylashgan. Bu nomda kanal ham bor. Alili topoonymi turkmanlarning ali-eli urug‘i nomi bilan aloqador. Ali-eli urug‘i Xiva xonining marhamati bilan **Qilichniyozboy qal’asi** atrofidan er olib, shu erda yashay boshlagan. Ularning qishlog‘i Alili nomi bilan yuritilgan, qishloqqa boradigan ariq ham qishloq nomi

⁵⁰ Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. -Тошкент, Ўқитувчи, 1977.55-б.

⁵¹ Дўсимов З., Эгамов Х. Юқоридаги луғат. 64-б.

⁵² Қораев С. Географик номлар маъносини биласизми? -Тошкент, Ўзбекистон, 1970. 86-бет.

bilan atalgan. Hazorasp tumanidagi Aliuylik toponimi ham ali elining shevada fonetik o'zgarishga uchragan shaklidir⁵³. Mazkur topoonimning etimoni esa ali-eli etnonimi hisoblanadi.

Arna – qishloq, ariq nomi. Agar nomlanishning birlamchi va ikkilamchiligiga e'tibor beradigan bo'lsak, avvalo, kishilar o'zlarining yashash joylarini daryo, ariq, ko'l, dengiz, soy kabi gidronimik inshootlarning yonida shakllantirishgan. Shuningdek, shaharcha va shahar, qishloq va ovullardan avval uning yonidagi gidronimik ob'ektlar sanaladiganlar (daryo, ariq, soy, ko'l, dengiz) nomlangan. Biroq hamma daryolar bo'yidagi shaharlar daryo (ariq, soy, ko'l, dengiz) nomlarini olavermagan.

Bizningcha, gidronimik nomlar bilan atalgan oykonimlar nisbatan ancha uzoq tarixga egaligi sir emas. Uning gidronimik nomi birlamchi nomi bo'lsa, qishloq nomining Arna deb nomlanishi ikkilamchi nomlanishdir. Natijada, gidronimik oykonim shakllangan. Toponim O'rta Osiyo va Qozog'istonda keng tarqalgan arna termini bilan bog'liqdir. Sankrit tilida arnos (ar-suv) «suv oqimi», demakdir. Xorazmda bu so'z yordamida Qilichboy arna, Otaliqarna, Taxtaarna kabi gidronimlar yasalgan. Dog'istondagi Arnabuloq, Arnagvay toponimlari ham shu so'z bilan aloqador⁵⁴.

8-mavzu:

Oronimik ko'lam va oronimika sohasi⁵⁵

O'zbek tili toponimiyasida orografik obyektlarning atoqli otlari ham

⁵³ Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати.-Тошкент, Ўқитувчи, 1977. 12-13-бет.

⁵⁴ Дўсимов З., Эгамов Х. Юқоридаги луғатга қаранг.18-бет.

⁵⁵ Ушбу матн Шерали Темировнинг “Самарқанд вилояти оронимларининг лисоний тадқиқи” 10.00.01 – Ўзбек тили ихтисослигидан филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси (Қарши, 2019)дан олинди.

alohida semantik guruhni tashkil etadi. Toponimikaga oid ilmiy manbalarda oronimlar turlicha qayd etiladi. S.Karimov, S.Bo‘riyevlar oronimlarni «*tog‘larning nomlari*» deb izohlaydilar va bu guruhga *cho‘qqilar, tepalar, qirlar, dovonlar, daralar, jarlarning* nomlarini ham kiritish mumkinligini aytadilar⁵⁶.

T.Enazarov sohaga doir terminlarni quyidagicha izohlaydi: «Oronim – baland, pastliklar, tog‘, tepalar nomi. Oronimiya – baland, pastliklar, tog‘ va tepalarning nomlari yig‘indisi. Oronimika – baland, pastliklar, tog‘, tepalar nomlarini o‘rganuvchi bo‘lim»⁵⁷. Olim boshqa o‘rinda oronimlar guruhiga tog‘, teqa, adir, qoya kabilarning nomlari kirishini qayd etadi⁵⁸.

S.Qoraev: «Oronim (oros – tog‘, onoma – nom, ism) – tog‘lar, tepaliklar, qirlar, soyliklar, daralar va boshqa orografik obyektlarning nomlari», – deb yozadi⁵⁹. Boshqa o‘rinda toponimist: «Oronimlarga tog‘u toshlargina emas, balki relefning salbiy shakllari – vodiylar, daralar, jarliklar, soyliklar, o‘yiq-o‘ypoqlar, shuningdek, tekislik, past tekisliklar va qumliklar ham kiradi», – deb ko‘rsatadi⁶⁰.

Z.Do‘simov, M.Tillaevalar oronim terminiga «*relef tiplari va shakllari (er yuzasidan balandlik va chuqurlik) nomi*» degan izoh berishgan⁶¹.

Oronim termini E.Begmatov, N.Uluqovlarning terminologik lug‘atida mukammalroq izohlangan: «Oronim (yun. *orog* – tog‘ +

⁵⁶ Қаранг. Каримов С.А., Бўриев С.Н. Ўзбек топонимикаси тараққиёт босқичида. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 44.

⁵⁷ Эназаров Т. Номшунослик масалалари. – Тошкент, 2010. – Б.78.

⁵⁸ Эназаров Т. Ўша қўлланма, 80-б.

⁵⁹ Қораев С. Географик номлар маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978. – Б. 193.

⁶⁰ Қаранг. Қорайев С. Топонимика. – Ташкент: О‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – В. 66.

⁶¹ Дўсимов З., Тиллаева М. Топонимика асослари. – Тошкент, 2002. – Б. 82.

onoma – atoqli ot) – er yuzasi relefidan bo‘rtib, ko‘tarilib chiqqan har qanday baland joylar (tog‘, qir, tepa, cho‘qqi, dovon va boshqalar) atoqli oti»⁶². Boshqacharoq aytganda, oronimlar orografik obyektlarning maxsus atoqli nomlaridir⁶³.

Rus toponimikasiga oid ayrim adabiyotlarda ham oronimlar sirasiga faqat tog‘ va cho‘qqi nomlari kiritiladi⁶⁴.

Ya.Avlaqulov oronimlarni makroko‘lam deb ko‘rsatadi va bu guruhga quyidagi obyekt nomlarini kiritadi:

1) tog‘lar, tog‘ tizmalari nomi: *Quljuq tog‘* (Buxoro v.), *Ko‘kcha tog‘i* (G‘ijduvon t.), *Etimgog‘*, *Qoratog‘*, *Oqtog‘* (Navoiy v.), *Chotqol*, *Qurama* (Namangan v.), *Nurota tog‘i*, *Oqtog‘* (Samarqand v.), *Ko‘kkamar tog‘i*, *To‘ng‘izli tog‘i*, *Beshtov* (O‘zME, 2-j.,7); *Bobotog‘*, *Boysuntog‘*, *Bo‘kantov*, *Yomontov*, *Zargartog‘*; *Beshqiz* va b.;

2) dovonlar, oshuv, bel, ko‘tallar nomi: *O‘zbekko‘tal* (ko‘tal – pereval (G‘allaorol t.), *Muzbel* (bel – pereval, Baxmal t.), *Bozorxonim* (dovon, Toshkent v.), *Burgutli* (dovon, Toshkent v.), *Mirzaboy* (dovon, Toshkent v.), *Takali* (dovon, Navoiy viloyati), *Taxtaqoracha* (dovon, Samarqand v.) va b.;

3) cho‘qqilar, qoyalar nomi: *Qirqqiz qoyasi*, *Odamtosh qoyasi* (O‘zME), *Tepakal qoyasi*, *Yapaloqcho‘qqi*, *Qo‘shcho‘qqi* va b.;

4) tepalar, do‘ngliklar, qirlar nomi: *Yassitepa*, *Choshtepa*, *Chuqurtepa*, *Qo‘shtepa*, (Navoiy v.), *Ko‘ktepa*, *Beshtepa*, *Uchtepa*,

⁶² Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 63.

⁶³ Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – Москва: Наука, 1978. – С. 105.

⁶⁴ Каранг. Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. – Москва: Наука, 1974. – С.24.

Surxtepa (Surxondaryo v.), *Do'ltalitov qiri* (Tosh.v.), *Kiyiktog'* (balandlik, Navoiy v.) va b⁶⁵.

Oronim termini asli leksik jihatdan «*tog' nomi*» ma'nosini anglatsada, uning ma'no doirasi ancha keng. Oronimlarga tog'lar, tog' tizmalari, qirlar, dovonlar, tepalar, tepaliklar, qoyalar, cho'qqilar, toshlar, qoyalar, adirliklar va tog'liklarda joylashgan boshqa xil fizikaviy-geografik o'rinlarni ifodalovchi orografik obyektlarning atoqli otlari kiradi.

Oronimlar, xuddi oykonimlar va gidronimlar singari, o'zbek toponimiyasining mustaqil, alohida turi va majmuidir. Ular makrotoponim va mikrotoponimlar maqomida bo'ladi va umumtil leksik birliklaridan, hudud aholisining nutqiga oid dialektal so'z va qo'shimchalardan tarkib topadi.

O'zbekiston Respublikasining Samarqand viloyati toponimiyasi ham oronimlarga boyligi bilan xarakterlanadi. Samarqand viloyati Zarafshon daryosining o'rta qismida joylashgan. Relefi, asosan, kenglik bo'ylab cho'zilgan va shimoldan *Turkiston tog' tizmalarining* tarmoqlari (*Nurota tog'i*, balandligi 2169 m), *Oqtog'*, 2003 m, janubdan *Zarafshon tog' tizmalari* bilan o'ralgan Zarafshon vodiysidan iborat. Vodiy sharqdan (750-800 m) g'arbga qarab (350 m) pasayib boradi. Vodiydan shimolga va janubga tomon qiya tekisliklar joylashgan va tog'larga yaqinlashganda adirlar boshlanadi⁶⁶. Samarqand viloyati tog' tizmalari, o'z navbatida, ko'plab yassi tog'larga bo'linib ketadi. *Ayribel*, *Beshbarmoq*, *G'o'bdintov*, *Jalqir*, *Mirhaydar*, *Murtog'*, *Choltosh*, *To'ratov*, *Chambar*, *Chig'atoytov*, *Qizbibi* kabi oronimlar shular

⁶⁵ Қаранг. Авлакулов Я.И. Ўзбек тили ономастик бирликларининг лисоний тадқиқи: Филол. фан. ... диссер автореф. – Тошкент, 2012. – Б. 27.

⁶⁶ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. – 7-ж. – Б. 463.

jumlasidandir.

Biz dala dialektologik ekspeditsiyalar natijasida Samarqand viloyati bo'yicha to'plagan orografik obyektlarning taqsimoti quyidagicha: tog' nomlari – 218 ta, tizma nomlari – 20 ta, cho'qqi nomlari – 53 ta, qoya nomlari – 9 ta, dovon nomlari – 30 ta, g'or nomlari – 46 ta, tosh nomlari – 69 ta, dara nomlari – 17 ta, zov nomlari – 9 ta, gaza nomlari – 19 ta, supa nomlari – 4 ta, uchma nomlari – 1 ta, tumshuq nomlari – 2 ta, tepa nomlari – 763 ta, qir nomlari – 57 ta, adir nomlari – 69 ta kabi. Dalillardan ham ko'rinadiki, oronimlar tushunchasi onomastik nuqtai nazaridan keng qamrovga ega. Quyidagi obyekt nomlari o'zbek tilining onomastik sathida alohida semantik guruhni – oronimlarni, ya'ni oronimik ko'lamni – oronimiyani tashkil etadi.

Samarqand viloyati materiallari asosida o'zbek tili oronimlari guruhiga quyidagi obyektlarning maxsus atoqli nomlarini kiritish mumkin:

1. Tog' tizmalari (har ikki tomondagi yon bag'irlari tik bo'lgan, uzunasiga cho'zilgan yirik relief shakllari) nomlari: *Qaroqchitog'* (Qo'shrabot t.), *Chaqilikalon* (Urgut t.), *Zarafshon tog' tizmalari* kabi.

2. Adir (tog'larga yaqin, tog' etaklaridagi alohida tepalik erlar) nomlari: *Qirqovul* (Qo'shrabot t.), *Egriqo'l* (Urgut t.), *Kichchikqiz* (Ishtixon t.) kabi.

3. Dovon // bel (tog' va tepaliklarning egarsimon eng baland joyi) nomlari. O'zbek tilida *dovon ag'ba / aqba / ovg'a / avg'a, ko'tal, oshuv* orografik terminlari *bel* leksemasi bilan bir leksik-semantik paradigmani tashkil qiladi: *Ayribel* (Nurobod t.), *Qumbelsoy* (Urgut t.), *Tiqchabel*

(Qo'shrabot t. shimoliy-sharqiy chegarasida), *O'rtabel* (Nurobod va Samarqand tumanlari janubiy chegarasida) kabi.

4. Tog' nomlari: *Bo'g'chaqo'rg'ontog'* (Urgut t. Boyqishloq q.), *Gardantog'* (Urgut t. Kamongaron q.), *Ettiqiztog'i* (Urgut t. Qo'zichi q-q), *Zinaktog'* (Urgut t. Yanoqishloq q.), *Murtog'* (Payariq t., Nurota tizmasining shimoliy yonbag'rida), *Oynaqortog'i* (Urgut t. Boyqishloq q.), *Oyto'lditog'* (Urgut t. Ayriqoya q.), *Suvombortog'i* (Urgut t. O'rtaqishloq q.), *Teshiktog'* (Ishtixon t.) kabi.

5. Qoya nomlari: *Ayriqoya* (Urgut t. Ayriqoya q.), *Belbog'liqoya* (Urgut t. Ayriqoya q.), *Qizilqoya* (Urgut t. Beshbuloq q.) kabi.

6. Tosh nomlari: *Ajdartosh* (Qo'shrabot t. Qizilbel q.), *Bo'zaktosh* (Urgut t. Ayriqoya q-q), *G'ildiraktosh* (Urgut t. Ayriqoya q.), *G'uratosh* (Nurobod t.), *Dallatosh* (Urgut t. Ayriqoya q.), *Darvozatosh* (Urgut t. Beshbuloq q.), *Yomontosh* (Urgut t. Ayriqoya q.), *Kelinchaktosh* (Urgut t. Qoratepa q.), *Qayroqtosh* (Urgut t. Ayriqoya q.), *Odamtosh* (Ishtixon t. Do'stlik q.), *Oytosh* (Urgut t. Chep q.) kabi.

7. Kamar nomlari: *Qizilkamar* (Kattaqo'rg'on t.), *Teshikkamar* (Urgut t.) kabi.

8. Cho'qqi (tog'ning eng baland, yuksak joyi) nomlari: *Bobomurodcho'qqi* (Urgut t. Ayriqoya q.), *Zardolicho'qqi* (Qo'shrabot t. Quvkalla q.), *Zinnoncho'qqi* (Urgut t. Konsoy q.), *Islomcho'qqi* (Urgut t. Qorabuloq q.), *Oqcho'qqi* (Urgut t. Oqtosh q.), *Sattorcho'qqi* (Urgut t. Qizilto'riq q.), *Toshtemircho'qqi* (Urgut t. Ayriqoya q.), *Chodircho'qqi* (Ishtixon t. Boyto'pi q.), *Eshqulcho'qqi* (Urgut t. Boyqishloq q.) kabi.

9. Tepa nomlari: *Quchtepa* (Kattaqo‘rg‘on t. Tuynaq q.), *Qoratepa* (Urgut t.), *Semiztepa* (Paxtachi t. Qarnab q.), *Ko‘ktepa* (Qo‘shrabot t. Quvkalla q.), *Qirg‘intepa* (Qo‘shrabot t. Qizilbel q.), *Qoravultepa* (Qo‘shrabot t. Qizilbel q.), *Qo‘rg‘ontepa* (Qo‘shrabot t. Quvkalla q.), *Avliyotepa*, *Boylartepa*, *Boylateva*, *Boytepa*, *G‘alvirtepa*, *Do‘ngtepa*, *Ettitepa*, *Jalpoqteva* (Urgut t.) kabi.

10. Dara nomlari. *Daxanalidara* (Urgut t. Kamongaron q.), *Tangidara* (Ishtixon t. Sortoqchi q.), *Tollikdara* (Urgut t. Qizilbosh q.), *Chapdara* (Urgut t. Abduqishloq q.) kabi.

11. Zov nomlari. *Qorazov* (Nurobod t.), *Zovdor* (Urgut shahri yaqinida), *Qizilzov* (Urgut t.), *Qushxona* (Qo‘shrabot t.) kabi.

12. Gaza nomlari: *Qumgaza* (Nurobod t. Qoratepa tizmasining g‘arbiy qismida), *Maymungaza* (Urgut t. Beshbuloq q.), *Tikgaza* (Qo‘shrabot t.) kabi.

13. Supa nomlari: *Supatosh* (Urgut t. Boyqishloq q.), *Payg‘ambarsupa* (Urgut t. Beshkal q.), *Amirsupa* (Kattaqo‘rg‘on t. Yangiqo‘rg‘oncha q.) kabi.

14. Uchma (tik qoya) nomlari: *Laylakuchma* (Urgut t. Lakkon q.) kabi.

15. Qir nomlari. Geografik termin sifatida *qir* o‘zbek tilida *atrofdagi erlardan bir oz ko‘tarilib turgan, yassi yoki salgina gumbazsimon balandlik, tepalik* ma’nosini anglatadi⁶⁷. Masalan, *Kaltaqir* (Ishtixon t.), *Yaltiroq* (Qo‘shrabot t.), *Novqir* (Urgut t.), *Oto‘ldi* (Nurobod t.) kabi.

⁶⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 5-ж. – Б. 297.

16. G‘or // ungur nomlari. *Devxonag‘ori* (Urgut t. Boyqishloq q.), *Zumradg‘or* (Urgut t. Ayriqoya q.), *Qismoqq‘or* (Qo‘shrabot t. Quvkalla q.), *Qo‘ylik‘or* (Ishtixon t. Boyto‘pi q.), *Nurchag‘or* (Kattaqo‘rg‘on t. Arabxona q.), *Terakg‘or* (Urgut t. Tersak q.), *Turpoqq‘or* (Urgut t. Boyqishloq q.), *Chiltong‘or* (Urgut t. Bahrin q.), *Sharrag‘or* (Urgut t. Konsoy q.) kabi.

17. Tumshuq nomlari. *O‘rtatumshuq* (Nurobod t.) kabi.

Oronimika toponimikaning bir bo‘limi sifatida o‘zining o‘rganish obyekti va predmetiga ega. Oronimika tilshunoslikning nazariy va amaliy xarakterga ega bo‘lgan sohalaridan biri hisoblanadi. Oronimika – toponimikaning oronimlarni o‘rganuvchi tarmog‘i.

O‘zbek tilshunosligidagi toponimikaga oid ilmiy manbalarda oronimika sohasi o‘rganadigan masalalar ko‘lami aniq belgilanmagan va ko‘rsatilmagan. Ilmiy manbalarda bu masalaga doir quyidagi izohlarga kuzatiladi: «Oronimika – toponimikaning ma’lum bir til yo region oronimlari majmuini o‘rganadigan bo‘limi»⁶⁸.

S.Qoraev bu terminga quyidagicha izoh beradi: «Oronimika – toponimikaning oronimlarni vujudga kelishi, taraqqiyot qonunlarini va amal qilishini o‘rganadiga kichik bo‘limi»⁶⁹. E.Begmatov va N.Uluqovlar esa oronimikaga «Toponimikaning oronimlarni paydo bo‘lishi va vazifaviy xususiyatlarini o‘rganuvchi tarmog‘i» deb izoh beradilar⁷⁰.

E.Begmatov oronimlarni antroponim, toponim, gidronim, zoonim,

⁶⁸ Дўсимов З., Тиллаева М. Топонимика асослари. – Тошкент, 2002. – Б. 82.

⁶⁹ Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – Б. 217.

⁷⁰ Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 63.

oykonim, ergonim va etnonimlar qatori qoniqarli tadqiq qilingan onomastik birliklar sirasiga kiritadi⁷¹.

Bu fikrlar umuman to‘g‘ri bo‘lsa ham, bizningcha, oronimika sohasi o‘rganadigan ilmiy-nazariy va amaliy masalalar doirasi ancha kengroq. Oronimika tilning onomastik sathiga mansub oronimlar bilan bog‘liq quyidagi masalalarni o‘rganishi lozim:

1) oronimlar paydo bo‘lishi va shakllanishining lisoniy, nolisoniy omillarini;

2) oroobyektlarning nomlanishiga oid tarixiy, xalqona an‘analarni;

3) oronimik indikatorlarning lisoniy xususiyatlarini va oronimlar tarkibidagi vazifasini;

4) oroobyektlarning nomlash tamoyillarini;

5) oronimlarning tarixiy va zamonaviy shakllarini hamda tilning oronimik sathidagi lisoniy o‘zgarishlarni;

6) oronimlarning leksik-semantik xususiyatlarini;

7) oronimlarning morfemik va yasalish jihatlarini;

8) tilning apellyativ leksik sathi bilan oronimik sathi munosabatlarini;

9) oronimlarning boshqa toponim turlari: oykonimlar, gidronimlar, urbonimlar, drimonimlar, xoronimlar, agroonimlar bilan munosabatini va bundagi vazifaviy o‘tishlarni;

10) folklor, tarix, geografiyaga oid asarlardagi va qadimiy qo‘lyozmalardagi oronimlarning yaratilishi bilan bog‘liq ma‘lumotlarni;

11) oronimiyaning mahalliy lahja va shevalarga oid xususiyatlarini;

12) oronimlarning etimologiyasini;

⁷¹ Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 37.

13) oronimlarni tasniflash masalalarini;

14) oronimik xaritalar, oronimik lug‘atlar tuzish tamoyillarini.

Oronimlar toponimlarning alohida bir turi sifatida xalq tarixi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, milliy tilning, xalq ijtimoiy hayoti, madaniyati va ma’naviyatining o‘ziga xos qirralarini ifoda etuvchi lisoniy qatlam hamda xazinadir. Toponimlar kabi oronimlar ham ajdodlarimizdan hozirga qadar etib kelgan ulkan madaniy-ma’naviy meros, milliy qadriyatlarning bebaho namunasidir.

Oronimlar muayyan bir xil tipdagi oroobyektlarni yakkalab atash orqali uni boshqa shunday obyektlardan farqlash kabi nominastion vazifalarni bajaradi hamda o‘zida qimmatli tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-geografik ma’lumotlarni tashishi bilan xarakterlanadi. O‘zbek tili oronimlarning qadimiyligi, turg‘unligi, yashovchanligi, o‘zida turli tarixiy-geografik axborotlarni mujassam etganligi ushbu onomastik birliklarni tarix, geografiya, arxeologiya, o‘lkashunoslik, tilshunoslik kabi fanlar tomonidan o‘rganishni taqozo etadi. Jahon onomastikasida oronimlar tadqiqida erishilgan tajriba va yutuqlarni o‘rganish, ularni o‘zbek oronimikasiga tatbiq etish, o‘zbek tili oronimlarining izohli, imloviy, etimologik, qiyosiy lug‘atlarini yaratish o‘zbek toponimikasining navbatdagi muhim va dolzarb vazifalaridandir.

9-mavzu:

“Buxoro viloyati toponimlari: sharh va tavsiya” kitobiga so‘zboshi

Joy nomlarining paydo bo‘lishi insoniyat tarixiy taraqqiyotining mahsulidir. Inson nutqi, borliq to‘g‘risidagi tasavvuri va tafakkuri, dunyoqarashining o‘sib borishi bilan joylarni nomlash ortib, joy nomlari ham ko‘paya bordi. Hozirgi kunda nomsiz obyekttni tasavvur qilish

mumkin emas. Har qanday joy o‘z nomiga ega. Joy nomlarini o‘rganuvchi toponimika esa allaqachon maxsus fan sifatida (lotincha topos – joy, onima – nom) shakllandi. Nomsiz obyekt toponim hisoblanmaydi.

Joy nomlari har bir joyning geografiyasi, bu erda yashovchi aholining til xususiyatlari, mashg‘uloti bilan uyg‘un holda paydo bo‘ladi va ularni o‘zida aks ettiradi. Nom albatta joyning o‘zidan keyin paydo bo‘ladi.

Shulardan kelib chiqqan holda joy nomlarini quyidagicha turkumlash mumkin:

- 1) u yoki bu joyning tabiati, tabiiy geografiyasi, tabiiy sharoiti bilan bog‘liq joy nomlari;
- 2) aholining mashg‘ulotini ifoda etuvchi joy nomlari;
- 3) aholining etnik mansubligini aks ettiruvchi toponimlar.

Birinчисiga Ko‘ksaroy, Ko‘hibaland, Shahrisabz, Toshloq, Mevazor, Uzumzor va h.k.; ikkinчисiga Kosagaron, Degrezi, Halvogaron, Charmgaron, Qamchinbof va boshqalar, uchinчисiga Bahrin, Qovchin, Arg‘un, Qiyot, Mang‘it, Xalach, Turkon, O‘zbekon, Mo‘g‘ulon, Arabon va h.k. kiradi.

Buxoro shahri va vohasi tarixiy toponimlarga boy maskanlardan biri. Buxorodagi joy nomlarining aksariyati ikki komponentli, ba’zida hatto uch komponentli va asosan fors-tojik tilining xususiyatlarini o‘zida mujassam etadi. Shuningdek, sug‘diy til ohanglarini saqlab qolgan toponimlar ham mavjud. Jumladan, Varaxsha, Navmichkat va h.k.

Buxoro shahrining o‘zi ko‘plab toponimlarga ega va bu toponimlar hozir ham o‘z ijtimoiy hamda madaniy ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Birgina «Buxoro» toponimini olib qarajak, bu toponimning necha asrlar sinovidan oʻtganining guvohi boʻlamiz. «Buxoro» soʻzining etimologik talqinida olimlar oʻrtasida yagona fikr mavjud emas. Akademik V.V.Bartold «Buxoro» sanskritcha (qadimiy hindcha) Vixara, yaʼni «ibodatxona» soʻzidan olingan deb hisoblasa, atoqli oʻzbek olimi akademik A.Muhammadjonov «Buxoro» sugʻdcha «Bugʻoro» – «Tangri jamoli» maʼnosini anglatadi, degan fikrni ilgari suradi. Ilk oʻrta asrlarda Buxoroni xitoyliklar turli nomlar bilan atashgan. Buxo, An, Ansi, Buxala, Fuxo, Puxala.

Oʻrta asr arab manbalarida Buxoro shahriga nisbatan «Madinat us-sufriya», «Madinat ut-tujjor», «Foxira» nomlari qoʻllaniladi. Bu nomlar arablar tomonidan berilgan boʻlib, Buxoroning arablar tasavvuridagi sifatlarini anglatadi. Masalan, Buxoro mustahkam qalʼa devorlari bilan oʻralganligi uchun uni «Madinat us-sufriya», yaʼni «Mis shahar» deyishgan. Karvon yoʻlidagi xalqaro savdoda Buxoro etakchi oʻrin tutgani shaharning «Madinat ut-tujjor», yaʼni «Savdogarlar shahri» deb atalishiga sabab boʻlgan. «Foxira» atamasi esa islom dinining barqarorligi uchun kurashgan shahidlari bilan faxrlanuvchi shaharga, yaʼni Buxoroga nisbatan qoʻllanilgan. «Buxoro» atamasi esa VIII asrdan boshlab qoʻllanila boshladi.

Bulardan tashqari, Buxoroning Numijkat, Bumiskat singari mahalliy nomlari ham mavjud boʻlgan. Numijkat aslida sugʻd tilidagi Navmichkat soʻzining oʻzgargan shakli boʻlib, «nav»-yangi, «mich»-qalʼa, istehkom va «kat»-qishloq kabi soʻzlar birikmasidan tashkil topgan va «yangi qalʼa», «yangi qoʻrgʻon» va «yangi istehkomli qishloq» maʼnolarini anglatgan. Bu toponim aslida hozirgi Mir Arab, Machiti Kalon

yodgorliklarining quyisida joylashgan doʻnglikka nisbatan qoʻllanilgan. Bu tepalik ilk oʻrta asrlarda Buxoroning mustaqil shahristonini tashkil etgan va maydoni 6-7 gektardan iborat boʻlgan. Soʻnggi oʻrta asrlarda bu erda Buxoro qozikaloni saroyi va mahkamasi joylashgan edi. Bu joyning oʻzi hozirgi kunda ham mavjud boʻlsa-da, lekin uning nomi bizgacha saqlanmagan. Bunga shahar strukturasi yuz bergan oʻzgarishlar sabab boʻldi. Shahar kengayib, Navmichkat uning umumiy hududiga qoʻshilgach, sekin-asta bu nom isteʼmoldan chiqdi va unut boʻlib ketdi.

Somoniylar davrida Buxoro shahri Ark (kuhandiz), shahriston, rabot va bozor qismlaridan iborat edi. Shahriston atamasi shaharning aholi yashaydigan markaziy qismiga nisbatan ishlatilgan. Hozirgi koʻz kasalliklari kasalxonasi, Zindon binosi, Soʻfiyon Savri mozori, Shoaxsi masjidi, Sayyid Poband mozori va boshqa katta-kichik yodgorliklar shahristonda joylashgan. Shahristonning etti darvozasi boʻlib, ular quyidagi nomlarga ega boʻlgan: Darvozai Bozor, Darvozai Shahriston, Darvozai Bani Sad, Darvozai Bani Asad, Darvozai Kabiriya, Darvozai Hafs (Haq rah), Darvozai Nav. IX asrda bu darvozalar hali mavjud edi. Keyingi asrlarda Shahriston shahar hududiga qoʻshilib ketgach, darvozalar ham buzilib, ularning nomi xalq orasida ishlatilmay, faqat manbalarda nomlari saqlanib qoldi, xolos.

Shayboniylar davrida Buxoro poytaxtga aylangach, shahar hududlari kengayib, oʻz nomiga ega yangi mahalla va guzarlar paydo boʻldi. Shahar atrofi mudofaa devori bilan oʻrab olindi hamda devor orasidagi maʼlum masofalarda 11 darvoza barpo etildi. Har bir darvoza oʻz nomiga ega boʻlgan va aksariyat hollarda bu nomlar darvoza

joylashgan yoʻnalishni anglatgan. Eʼtiborlisi shundaki, baʼzi darvoza nomlari davr oʻtishi bilan oʻzgarib borgan. Masalan, hozir ham mavjud boʻlgan Qorakoʻl darvozasi XVI asrda «Solor haj» deb atalib, hajga boruvchilar shu darvoza orqali chiqib ketishgan.

Ashtarxoniylar davridan shahar mudofaa devoriga yaqin joylarda saroy va bogʻ barpo etish anʼanasi kuchaydi. Ashtarxoniy Ubaydullaxon (1702-1711-y.) tomonidan Tallipoch darvozasi yaqinida 1709- yil ulkan bogʻ, bogʻ oʻrtasida esa muhtasham koshona bunyod etildi. Shu xon sharafiga bu joy Xonobod deb atala boshlandi. Davrlar oʻtib bogʻ va koshona buzilib ketdi, lekin joy nomi saqlanib qoldi. Shu nomli qishloq hozir ham mavjud.

Shahar qalʼa devori yaqinida qurilgan yana bir saroy Ubaydullaxon nomi bilan bogʻliq. Saroy Xoʻja Ismat mozori yaqinidagi Piri Marza mavzeida barpo etilgan. Aslida Xoʻja Ismat asos solgan bu bogʻ Piri Marza deb atalib, xalq orasida uzoq vaqt shu nomda qoʻllanib kelindi. Davr oʻtib bogʻ va saroy buzilib ketgach, Piri Marza toponimi ham isteʼmoldan chiqdi va bu joyga nisbatan «Xoʻja Ismat» atamasi ishlatila boshlandi. Hozirgi kunga qadar shu nom saqlanib qolgan.

Ashtarxoniy Abulfayzxonning (1711-1747-y.) onasi Sitorai Moxi Xosa tarafidan XVIII asrda shahar tashqarisida soʻlim bir bogʻ barpo etildi. Zamonlar oʻtishi bilan bu joy uning nomi bilan ataladigan boʻlib qoldi. Mangʻitlar sulolasidan amir Abdulahadxon (1885-1910-y.) va uning oʻgʻli amir Olimxon (1910-1920-y.) oʻzining shahardan tashqaridagi qarorgohini aynan shu bogʻ oʻrtasida qurdi. Hozirgi kunga kelib «Sitorayi Mohi Xosa» toponimi nafaqat bogʻ va saroyga nisbatan, balki butun bir aholi punktiga nisbatan ham qoʻllanilmoqda.

Joy nomlari – tarixning bir bo‘lagi. Ularni saqlab qolish, asrash, kelajak avlodga asl holida etkazish, unutilib ketgan tarixiy joy nomlarini qayta tiklash hozirgi kundagi muhim vazifalardan biri. Joy nomlarining yashovchanligini davrning o‘zi ko‘rsatadi. Davr sinovidan o‘tgan, har qanday zamonda ham o‘z tarixiy-madaniy, ijtimoiy ahamiyatni saqlab qolgan toponimlar uzoq yashaydi va og‘izdan-og‘izga o‘tib kelaveradi.

Halim To‘rayev – BuxDU professori,
Bayramali Qilichev – BuxDU dostenti

“Onomastika” fanidan test

Toponimika so‘zi qaysi tildan kelib chiqqan?

grek

lotin

arab

fors

Qachon mintaqamiz uchun yozma manbalarda ko‘hna toponimlar ko‘plab qayd qilingan davr edi?

milodning birinchi ming yilligi oxiri — ikkinchi ming yilligi boshlari

milodning ikkinchi ming yilligi oxiri — uchinchi ming yilligi boshlari

milodning birinchi ming yilligi oxiri

milodning ikkinchi ming yilligi boshlari

***Polinimiya* so‘zi qaysi tildan olingan?**

yunoncha

lotincha

fransuzcha

nemischa

Atoqli otlarni o‘rganish bilan bog‘liq tahlil usullarini necha guruhga bo‘lish mumkin?

3

2

4

5

Toponimiyani qaysi bo‘limida kichik obyektlar: buloqlar, quduqlar, dalalar, o‘tloqlar nomlari o‘rganiladi?

mikrotoponimiyada

polinimiyada

oykonimiyada

oronimiyada

Tarixchi Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiyning asarini belgilang.

“Buxoro tarixi”

“Abdullanoma”

“Shajarayi tarokima”

“Buxoronoma”

Toponim yasovchi bu affiks ikki xil yo‘l bilan paydo boigan: biri arabcha boisa, ikkinchisi sug‘diyhadir. Bundan tashqari, qadimgi turkiy tilda va mo‘g‘ul tilida ham ko‘plik o‘rnida keladi. Gap qaysi toponim yasovchi affiks haqida ketyapti?

-ot(t)

-on(n)

-lar

-i

Diminutiv nima?

kichraytirilgan shakldan toponim yasalishi

o‘xshatish ma’nosidagi toponim yasalishi

qayta nomlash asosida toponim yasash

nomlarni kalkalash

O‘zi mustaqil holda ishlatilmaydigan, lekin so‘zdan oldin yoki keyin qo‘shilib toponim hosil qiladigan qo‘shimcha?

formant

suffiks

diminutiv

prefiks

Qaysi olim «Ro‘yxat»ida Zarafshon vodiysining faqat Buxoro qismida *Balandrabort, Beshrabort, Yettirabort* kabi 160 dan ortiq qishloq, bundan tashqari, shu qishloqlar nomi bilan atalgan bir

necha ariq qayd qilinganligini aytib o‘tadi?

N.F.Sitnyakovskiy

V.Nikonov

V.Vyatkin

A.Muhammadjonov

“O‘rta Osiyoda atoqli geograf oilm va sayyohlar ozmuncha bo‘lmagan, ular ajoyib asarlar yozganlar”, deya qaysi olim aytib o‘tgan?

H.Hasanov

A.Muhammadjonov

T.Nafasov

H.To‘rayev

***“Mikrotoponimlar atoqli otlar bilan turdosh so‘zlar o‘rtasida oraliq mavqeni egallaydi”.* Fikr muallifini aniqlang.**

V.Nikonov

V.Vyatkin

A.Muhammadjonov

T.Nafasov

V.A.Nikonov o‘zining toponimik lug‘atida dunyodagi nechaga yaqin yirik geografik obyektlar nomlarining kelib chiqishini izohlab bergan?

4 ming

8 ming

2 ming

10 ming

Rossiya geografiya jamiyati qoshida Kartografiya komissiyasi qachon tuzildi?

1904

1910

1929

1919

Pomirning mikrotoponimlarini tadqiq qilishda qaysi olim asarlariga tayanilgan?

R.J.Dodixudoyev

A.L.Xromov

V.A.Juchkevich

A.S.Strijak

O'rta Osiyo va uning geografik nomlari to'g'risidagi eng qadimgi ma'lumotlar ... yunon olimlari asarlarida uchraydi.

miloddan avvalgi VI-V asrlarda

miloddan avvalgi II-I asrlarda

miloddan avvalgi III-II asrlarda

miloddan avvalgi VII-V asrlarda

Qaysi qatorda Amudaryoning qadimgi nomi xato berilgan?

Yaksart

Oks

Araks

Oksos

17 jildlik «Geografiya» asarining muallifi?
--

Strabon

Gerodot

Arian

Ruf Kurtsiy

O'zbekistonda birinchi bo'lib toponimikadan nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan toponimist olimni aniqlang?

T.Nafasov

Z.Do'simov

N.Oxunov

H.Hasanov

Toponimiyaning eng o‘zgaruvchan tarmog‘i?
oykonimlar
gidronimlar
oronimlar
nekronimlar

Qaysi qatorda orooykonimlar berilgan?
Bo‘lakadir, Zartepa, Yetimtog‘
Zartepa, Yetimtog‘, Paxtaqaynar
Bo‘lakadir, Kattayop, Zartepa
Zartepa, Yetimtog‘, Kattayop

“Jayxun har qanday katta daryoni bildiradigan turdosh ot” jumla muallifini aniqlang.
Gardiziy
Buxoriy
Termiziy
Forobiy

Mahalliy xalqimiz katta daryo deb qaysi daryoni atagan?
Amudaryoni
Zarafshon daryosini
Sirdaryoni
Qashqadaryoni

Marokanda hozirgi qaysi shahar?
Samarqand
Buxoro
Qarshi
Toshkent

Fitonimlar...
o‘simlik nomi bilan bog‘liq atoqli otlar

hayvon nomi bilan bog‘liq atoqli otlar
yirik geografik obyekt nomi
tog‘ nomi

Teonimlar nima?
din bilan bog‘liq atoqli otlar
afsonaviy nomlar
din bilan bog‘liq turdosh otlar
din bilan bog‘liq otlar

Antroponimlarda ma’nodoshlik bormi?
yo‘q
bor
fanda aniqlanmagan
faqat matndan tashqarida

Toponimlar morfemaga ajraladimi?
ayrim toponimlar ajraladi
yo‘q ajralmaydi
toponimlar tarkibli bo‘lmaydi
toponimlar faqat asosdan tashkil topadi

Qaysi qatorda toponim berilgan?
Arablar
shaharlar
Buxorolar
qizlar

“O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati” asarining muallifi kim?
T.Nafasov
S.Qorayev
H.Hasanov
Z.Do‘simov

Z.Do‘simov va X.Egamovlar lug‘ati qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

“Joy nomlarining qisqacha izohli lug‘ati”

“Joy nomlarining izohli lug‘ati”

“Joy nomlarining qisqacha lug‘ati”

“Joy nomlarining qisqacha izohli o‘quv lug‘ati”

B.O‘rinboev asarini ko‘rsating.

“Jizzax viloyati toponimlari”

“Joylar va nomlar”

“O‘zbek tili onomastikasi”

“Toponimika – joy nomlari haqidagi fan”

Adir, ariq, bel, buloq kabilar qanday nomlar tarkibida uchraydi?

toponim va gidronim tarkibida

faqat toponimlar tarkibida

antroponimlar tarkibida

toponim va antroponim tarkibida

Farg‘ona vodiysi bilan aloqador tarixda qo‘llangan nomni toping.

Isqobil

Marg‘ilon

Qo‘qon

Farg‘ona

Mug‘on, Mug‘xona toponimlari qaysi din bilan bog‘liq?

otashparastlik

islom

buddaviylik

xristyanlik

Jizzax so‘zining ma’nosini toping

kichik qal’a

yangi qal’a

eski qal'a
chetki qal'a

Topoformant nima?
toponim tarkibidagi qo'shimcha
toponim
toponimning asosi
har qanday qo'shimcha

Sherxona toponimining ma'nosini ko'rsating.
sher urug'i vakillari yashaydigan qishloq
sherlar yashaydigan makon
sut sotuvchilar yashaydigan joy
bunday toponim yo'q

Baliqchi toponimi tarkibidagi qo'shimchani izohlang.
urug' nomi bo'lgani uchun qo'shimcha ajratilmaydi
shaxs oti yasovchi
sifat yasovchi
ot va sifat yasovchi

Ichan qal'a, Dishan qal'a qanday ma'noga ega?
ichki va tashqi qal'a
qal'aning ichkarisi va tashqarisi
o'z ma'nosini yo'qotgan
qal'aning turi

O'g'uz qabilalari "kend" atamasi ostida nimani tushungan?
qishloqni
mamlakatni
shaharni
toponim yasovchi qo'shimchani

Turkiylar "kend" atamasi ostida nimani tushungan?
--

shaharni
mamlakatni
qishloqni
toponim yasovchi qo‘shimchani

Ayoqchi toponimi qanday nom bilan bog‘liq?
urug‘ nomi
qabila nomi
idish-tovoq ustasi
duradgor

Xorazm viloyati hududida “yop” atamasi nimani anglatadi?
ariq
ko‘l
yo‘l
uy

Shahrud so‘zining ma’nosini ko‘rsating.
shahar arig‘i
shoh arig‘i
katta ariq
suvsiz ariq

H.Hasanov “Sirdaryo” toponimini qaysi so‘zga aloqador deb hisoblagan?
sir urug‘i
loyqa
sirli
sariq

Ayritosh, Qoratosh, Oqtosh kabi toponimlar tarkibidagi “tosh” so‘zi nimani ifodalaydi?
tog‘ning bir bo‘lagini
tog‘ni

toshni
kasb

Egar, salla, bukri soʻzlari qanday toponimlar tarkibida uchraydi?
oronimlar
oykonimlar
etnonimlar
gidronimlar

Urugʻ nomlarining eng qadimgilarini koʻrsating.
hayvon nomlari bilan bogʻliq nomlar
mavhum tushunchalar bilan bogʻliq nomlar
kasb bilan bogʻliq nomlar
din bilan bogʻliq nomlar

Barlos urugʻi nomini qaysi asarda “bahodir” soʻzi bilan bogʻliqligi qayd etilgan?
“Badoye ul - lugʻat”
“Devoni lugʻotit turk”
“Muhokamat-ul lugʻatayn”
“Lison-ut tayr”

Barlos soʻzini kim “qoʻrnondon” maʼnosiga ega, deb taʼriflagan?
Abulgʻozixon
Toleʼ Hirotiy
Alisher Navoiy
Bobur

Antroponimlar necha ichki guruhga ajratiladi?
5
4
6
7

“Ismlar o‘z obyekti haqida ma’lum bir axborotlarni berishi mumkin” degan fikr kim tomonidan aytilgan?

A.Superanskaya

E.Begmatov

V.Nikonov

A.Hojiyev

Polionimiya nima?

ko‘p nomlilik

nomlarning ma’nodoshligi

nomlarning shakldoshligi

ko‘p ma’nolilik

“Antroponimlarning til lug‘at tizimidagi o‘rni va ularning semantik uslubiy xususiyatlari”(1998) mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi muallifi kim?

I.Xudoynazarov

E.Begmatov

S.Qorayev

O‘.Oripov

O‘zbek ismlarini to‘plash, sharhlash bilan bog‘liq katta ishlarni amalga oshirgan olimni ko‘rsating

E.Begmatov

I.Xudoynazarov

O‘.Oripov

S.Qorayev

“Atoqli otlarda ma’no yo‘q” deb hisoblagan olimlarni ko‘rsating

Mill, Brandel, Morozov

Espersen, Nikonov, Superanskaya

E.Begmatov Superanskaya, Mell

Espersen, E.Begmatov Superanskaya

“Atoqli otlarda ma’no bor” deb hisoblagan olimlarni ko‘rsating.
Esperen, Nikonov, Superanskaya
Mill, Brandel, Morozov
E.Begmatov Superanskaya, Mell
Esperen, E.Begmatov Superanskaya

“Indikator” atamasini qanday ma’noni ifodalaydi?
ko‘rsatkich
qo‘shimcha
asos
ma’no

“Indikator” atamasini o‘zbek onomstikasida kim birinchi qo‘llagan?
Z.Do‘simov
E.Begmatov
X.Doniyorov
B.O‘rinboev

Betaraf indikatorlar qaysi?
xon, jon
beka, oy
bek, oyim
xon, bek

“Doxunda” antroponimining ma’nosi qaysi?
tog‘lik kambag‘al
oyoqyalang, kambag‘al
yetim bola
boyning ishchisi

“Transpozitsiya” atamasining ma’nosini ko‘rsating.
o‘tish, ko‘chish
o‘zgarish

almashtirish
yangilash

... sinfsiz jamiyatdagi etnik birlik va ijtimoiy tashkilot tipidir. Nuqtalar o‘rniga mos javobni belgilang.
qabila
qavm
elat
millat

Millatdan oldin turuvchi tushunchani ko‘rsating.
elat
qavm
millat
qabila

O‘zbek elati turli urug‘ va qabilalardan ... shakllana boshlangan. Nuqtalar o‘rniga mos javobni belgilang.
ilk o‘rta asrlarda
so‘nggi o‘rta asrlarda
o‘rta asrlarda
o‘rta asrlardan keyin

Xaytal so‘zi qanday ma’noni bildiradi?
pahlavon, jasur odam
qahramon, mard
botir, qo‘rqmas
mard, jasur

Asaka so‘zi qanday ma’noni bildiradi?
otliq
otboqar
jilovdor
uloqchi

<i>Bahodir</i> ma'nosiga ega etnonim qaysi?
barlos
bag'anali
boyovut
bag'anak

<i>Nayman</i> so'zi qaysi tilga mansub so'z?
mo'g'ul
qrg'iz
turk
Xitoy

<i>Nayman</i> so'zining ma'nosi nima?
sakkiz
yetti
to'qqiz
olti

<i>Chinoz</i> urug'ining totemini ko'rsating.
bo'ri
qarga'
kiyik
Ohu

<i>Toifa</i> so'zi qanday ma'noni bildiradi?
<i>aholi tabaqasi</i>
<i>aholi turi</i>
<i>aholi tarkibi</i>
<i>aholi tasnifi</i>

Goldlar o'z bolasiga ism sifatida qanday nom tanlaydi?
yaxshi kishilar nomini
shohlar nomini

hayvonlar nomini
o‘simliklar nomini

Armanlar nega qarindoshining ismini bolaga qo‘ymaydi?
qarindoshining umri qisqarib qoladi deb o‘ylashadi
xarakteri o‘xshash bo‘ladi deb o‘ylashadi
nom faqat bir kishida bo‘lishi kerak deb o‘ylashadi;
nom taqdirni belgilaydi deb o‘ylashadi.

Karagaslarda yangi tug‘ilgan bolaga qanday nom qo‘yishmaydi?
vafot etgan odamning nomini
kasallangan kishi momini
nogiron kishining nomini
keksaygan kishi nomini

Bo‘ron, Yomg‘ir, Dengiz, O‘rmon kabi ismlar qanday nomlanadi?
memorativ nomlar
izoh nomlar
niyat nomlar
xosiyatli nomlar

Ortiq, Olti, Qo‘shoq, Oqboy, Qoraboy kabi nomlar qaysi guruhga kiradi?
ism-izohlar
memorativ nomlar
niyat nomlari
tilak nomlari

Dezirativ nom nima?
ism tilaklar
ism
familiya
ota ismi

Ko‘pay, O‘lmas, Yo‘lchi, To‘xta kabilar qanday ismlar sirasiga kiradi?
dezirativ
memorativ
harakat nomlari
faoliyat nomlari

Ochil, Ochila kabilar qanday sabab bilan qo‘yiladi?
bola organizmidagi muayyan nuqsonlar yoki bola kasalligi bilan aloqador ma’lumotlar ifodalanadi
yaxshi niyat asosida
avlod bilan bog‘liqligi
bular betaraf nomlardir

Kishi nomlari guruhi qaysi guruhlarga ajratiladi?
erkaklar, ayollarga qo‘yiladigan, betaraf nomlar
erkaklar, ayollarga qo‘yiladigan nomlar
erkaklar, ayollarga, bolalarga qo‘yiladigan nomlar
faqat erkaklar va ayollarga qo‘yiladigan nomlar

Antroponimlarni “antropoleksemalar” yoki “ism–so‘zlar” deb atashni kim taklif etgan?
E.Begmatov
S.Qorayev
I.Xudoynazarov
O‘Oripov

Daryolar, ko‘llar, dengizlar, soylar, kanallar, qo‘ltiqlar, bo‘g‘ozlar, sharsharalar nomlari nima deb yutiladi?
gidronimiya
oronimiya
gidrooronimiya
gidrotoponimiya

Nomning polikomponentli ekanligi nima?

nomning tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi

nomning keng iste'moli

nomning ko'p ma'noligi

nomning ko'p qo'llanishi

Toponim yasashga xos bo'lgan lingvistik vosita nima?

model

metod

yasama

yasalma

Samarqand shahri sug'd yozuvlarida qanday nomlangan?

Smarakans

Samarkand

Marakand

Maroqand

Ispan elchisi Gondales de Klavixo asarida Samarqand qanday nomlangan?

Semizkent

Samarkent

Samarqand

Maroqand

Arablar, Beklar, Shayxlar kabilar tarkibidagi –lar qanday qo'shimcha?

toponim yasovchi

ko'plik hosil qiluvchi

-lar ajratilmaydi

shakl hosil qiluvchi

Toponimlar tarkibida uchrovchi –ot qo'shimchasi qanday vazifaga ega?

ko‘plik ifodalovchi
umumiylik ifodalovchi
yakkalik ifodalovchi
jamlik ifodalovchi

Geografik nomlarning paydo bo‘lishiga asosiy omil nima?
umumiy tushunchaning konkretlashishi va individuallashtirishi
tilning taraqqiyoti
tillarning o‘zaro ta’siri
leksikaning boyishi

Biror tushuncha individuallashtirilsa qanday hodisa ro‘y beradi?
atoqli ot paydo bo‘ladi
turdosh ot paydo bo‘ladi
aniq ot paydo bo‘ladi
mavhum ot paydo bo‘ladi

Umumiy tushunchaning muayyan bir obyektga bog‘lanishi natijasida qanday jarayonida ro‘y beradi?
toponimlashish
so‘z yasalishi
shakl yasalishi
ot yasalishi

Bir so‘zning o‘zi yoki so‘z birikmasi ayni vaqtda...
ham turdosh ot, ham atoqli ot bo‘lishi mumkin
faqat turdosh ot bo‘lishi mumkin
faqat atoqli ot bo‘lishi mumkin
bir so‘z faqat atoqli ot bo‘ladi

Toponimga aylangan so‘z...
yangi ma’no kasb etadi
yasama so‘zga aylanadi
faqat tub so‘z bo‘ladi

faqat qo‘shma so‘z bo‘ladi

Qoraqishloq toponimi tarkibidagi qora so‘zi qanday ma’noga ega?

urug‘ nomini bildiradi

rang bildiradi

hajm bildiradi

o‘lchov bildiradi

Toponimlashish jarayoni nima?

so‘zning odatdagi ma’nosidan uzoqlashishi va muayyan obyekt bilan bog‘liq konkret, individual tasavvurning paydo bo‘lishi

so‘zning odatdagi ma’nosining kengayishi va boshqa mavzu guruhiga ko‘chishi

so‘zning turdosh otga aylanishi

so‘zning atoqli otdan ko‘chishi

O‘zbekiston oykonimlari uchun xos bo‘lgan affikslar qaysilar?

-iston, -iya, -kor, -cha

-is, -iy, viy, -kar, -chi

-ton, -iya, -dosh, -chilik

-bon, -koron, -cha

Toponimlarni paydo bo‘lishiga qarab necha turga bo‘linadi?

ikki

uch

to‘rt

besh

Tabiiy yo‘l bilan hosil bo‘lgan toponimlar yana qanday nomlanadi?

xalq tomonidan qo‘yilgan toponimlar

xalq o‘zgartirgan toponimlar

o‘zlashma toponimlar

mahalliy toponimlar

Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiotlar:

1. Авлақулов Я.И. Ўзбек тили ономастик бирликларининг лисоний тадқиқи: Филол. фан. ... диссер автореф. – Тошкент, 2012. – Б. 27.

2. Аслонов А. Шофиркон тумани микротопонимиясининг лингвистик таҳлили: Филол. фанлари номзоди дис. ... автореф. – Т., 2005. – Б. 14.

3. Бегимов О. Жанубий Ўзбекистон топонимларининг ўзлашган қатлами: Филол. фанлари номзоди ... дис. автореф. – Т., 1999. – Б13-14.

4. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 63.

5. Дўсимов З. Топонимы Северного Хорезма: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т., 1970.

1. Дўсимов З. Топонимик индикаторлар // Ўзбек тили ва адабиёти. -1972. - №5. – Б. 71-74.

2. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати.-Тошкент, Ўқитувчи, 1977. 81-82-б.

3. Дўсимов З. Хоразм топонимларининг тарихий-лингвистик таҳлили: Автореф. дис. ... д-ра филл. наук. – Т., 1986.

4. Дўсимов З., Тиллаева М. Топонимика асослари. – Тошкент, 2002. – Б. 82.

5. Караев С. Опыт изучения топонимии Узбекистана: Автореф. дис. ... канд. Филол. наук. - Т., 1969. - С.13.

6. Караев С.К. Топонимия Узбекистана с топонимическим словарем. -Тошкент, Turon zamin ziyo, 2015. -с. 355-356.
7. Латипов Ж. Марғилон топонимиясида индикаторлар// «Ўзбек тили лексикологияси ва грамматикаси масалалари» тўплами. – Б. 561, 125.
8. Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. - С.119.
9. Нафасов Т. Топонимы Кашкадарынской области: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Т., 1968. - С. 9
10. Никонов В.А. Краткий топонимический словарь. - М., 1966. – С.492.
11. Ражабов Ў. Хоразм топонимияси индикаторларининг лисоний таҳлили. Филол.фанл.номз. диссер. –Т. 2007.
12. Холмуратов И. Жанубий Қорақалпоғистон ойконимлари ва уларнинг луғавий асослари. Филол.фанл.бўйича фалс.докт (PhD) диссер. –Б.: 2020.
13. Темиров Ш. Самарқанд вилояти оронимларининг лисоний тадқиқи. Филол.фанл.бўйича фалс.докт (PhD) диссер. -Қарши, 2019.
14. Каримов С.А., Бўриев С.Н. Ўзбек топонимикаси тараққиёт босқичида. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 44.
15. Эназаров Т. Номшунослик масалалари. – Тошкент, 2010. – Б.78.
16. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – В. 66.
17. Қораев С. Ўзбекистон вилояти топонимлари.- Тошкент, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. 193-бет.

18. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. –
Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – Б. 217.

Mundarija

Kirish	3
1-mavzu: «Boburnoma»	5
2-mavzu: “Buxoro tarixi”	11
3-mavzu: «Devonu lug‘otit turk» asarida toponimlar	17
4-mavzu: «Hudud ul-olam»	23
5-mavzu: Xorazm toponimikasi haqida	33
6-mavzu: O‘rin bildiruvchi indikatorlar	44
7-mavzu: Janubiy Qoraqalpog‘iston oykonimlari	55
8-mavzu: Oronimik ko‘lam va oronimika sohasi	64
9-mavzu: “Бухоро вилояти топонимлари: шарҳ ва тавсия” kitobining so‘zboshi	73
“Onomastika” fanidan test	79
Tavsiya etiladigan qo‘shimcha adabiyotlar:	98